

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo'l yozma huquqida

ABDULLAYEVA SARVINOZ

**Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig” asarining leksik-semantik
xususiyatlari**

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

F.f.n.G.Sh.Boltayeva

NAVOIY-2013 YIL

Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig” asarining leksik-semantik xususiyatlari

Reja:

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.....	2-7
I BOB. “Qutadg’u bilig”da qo’llangan ayrim so’zlarning etimologiyasi...7-25	
1.1 “Qutadg’u bilig”dagi ayrim so’zlarning tarixiy asoslari.....	9-17
1.2 Asardagi o’z va o’zlashgan qatlamga oid so’zlar.....	18-25
II	BOB.Qutadg’ubilig”
asaridagiso’zlarningshaklvama’nomunosabatigako’raturleri.	
.....	26-65
2.1 Asarda qo’llangan sinonim so’zlarning o’ziga xos xususiyatlari.....	26-43
2.2Omonimva antonim so’zlar uslubiy vosita sifatida.....	44-65
III BOB. “Qutadg’u bilig” da adibning so’z qo’llash mahorati.....	66-85
3.1. Metafora asosida badiiy –tasvir vositalarining yaratilishi.....	66-84
3.2.Metonimiyaning semantik- uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish.....	84-86
3.3.Sinekdoxaasosida ma’nosi ko’chgan so’zlar semantikasi.....	86-88
Xulosa.....	89-90
Adabiyotlar ro’yxati.....	91-93

Kirish.Ishning umumiy tavsifi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligisharofati bilan boshqa sohalar qatorida ma'naviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlarga, yangilanishlarga keng yo'l ochildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "...Eng muhim vazifa shundan iboratki, o'zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz avliyolarimiz qoldirgan bebaho merosni asrab-avaylab yanada boyitishimiz, ulug' ajdodlarimiz ishining munosib davomchilari bo'lmog'imiz darkor".¹

"Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyaning inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar".²

Yurtimizda yoshlarning ta'lim-tarbiya olishiga katta ahamiyat qaratilgan. Barkamol va komil insonni tarbiyalash mamlakatimizda muhim masalalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov bu masalada shunday fikr bildiradi: "Biz komil inson deganda, avvalo, ongi yuksak fikrlay oladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz".³

Leksikologiya (ot. grek. lexikos - so'zga oid va logos - ta'limot) tilning lug'at tarkibini, leksikasini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi. Leksikologiyani o'rganish manbai so'z hisoblansa, o'rganish predmeti uning quyidagi jihatlarini:

- a) lisonning asosiy lug'aviy birligi sifatida leksema muammosi, leksik birlik tiplari;
- b) til lug'at tarkibi strukturalari;
- c) lug'at tarkibining boyishi va taraqqiyoti;

¹Karimov I A. Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas'ulmiz. Toshkent:2001.12-bet.

²Karimov I A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.Toshkent:2008.60-bet

³Kartimov I A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: "Sharq". 1999. 81-bet

d) leksik birliklarning tildan tashqaridagi borliq bilan o`zaro munosabati.⁴

Leksikologiyada bir ma`nolilik va ko`p ma`nolilik hodisasi, so`zning shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turlari, qo`llanish darajasiga ko`ra umumiy iste`mol va chegaralangan leksika kabilar o`rganiladi.

Leksikologiya tilning so`z boyligi, ma`nosi va ma`no taraqqiyoti kabi masalalarni o`rganadi.

Biz leksikologiyani bilmasdan turib, boshqa bo`limlarini aslo bila olmaymiz.

Eng avvalo yoshlarni kafolatlangan ta`lim-tarbiyaga yo`naltirish uchun o`zligimizni anglashni o`rgatmog`imiz lozim. O`zlikni anglash milliy qadriyatlarni hurmatlash, ona tilimizni qadrlash va eng avvalo, adabiyotimizga e`tibordan boshlanadi.

O`zbek adabiyotida yirik iste`dodli yozuvchi va shoirlar bisyordir. Har qanday ijodkorning badiiy mahorati u yaratgan badiiy asarlar tilida namoyon bo`ladi. Adibning hayotdagi voqea-hodisalarga munosabati, o`ziga xos dunyoqarashi, teran mulohazaviy idroki, tabiatdagi boshqalar ko`ra olmagan ranglarni nozik his etishi hamda uni go`zal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi va yana ko`pgina boshqa jihatlar birgalikda badiiy asarning jozibadorligini tashkil qiladi. Ijodkorning xalq tilini chuqur bilishi, cheksiz so`z boyligiga ega bo`lishi, so`zning ta`sir qudratini his eta olishi, har bir so`zni ma`no nozikligini ilg`ab olishi so`z o`yinlaridan ustalik bilan foydalana olishi alohida o`rin tutadi.

Mavzuning dolzarbligi. O`zbek milliy ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, adabiy tili, adabiyoti va madaniyatining shakllanishi va taraqqiy etishida badiiy adabiyotning o`rni beqiyosdir. Chunki abadiy tilning rivoji uchun badiiy adabiyot tili eng boy manbaa bo`lib xizmat qiladi.

Adabiy tilning badiiy mukammallikka, milliy xarakterlar yaratishdagi o`ziga xoslikka erishishida so`z san`atkorlarining mashaqqatli xizmatlarini

⁴Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi O`zbek adabiy tili. Toshkent: 2009. 83-bet.

alohida takidlash lozim. Shu bois ularning asarlari va uslubini lingvistik jihatdan o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Zero, "o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkur ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi". Buyuk marifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda "har bir millatning dunyoga borlig'ini ko'rsatadurg'on oinai hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur"⁵

Sharq uyg'onish davrining eng yirik siymolaridan biri, xalq tilining yirik bilimdoni, buyuk adib Yusuf Xos Hojib asarlari bugungi kun, ma'naviy tuyg'ularini yuksaltirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Adibning bizga qoldirgan "Qutadg'u bilig" asari XI asrda yaratilgan bo'lsa-da bugungi kunda ham hayotiy ahamiyatini yo'qotmagan. Yusuf Xos Hojibning ona tiliga bo'lgan munosabati, uning boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi adibning "Qutadg'u bilig" asarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari o'zbek tilining jozibasi, ohangdorligi, ifodaliligi, tasirchanligi turfa lingvistik vositalar yordamida tasvirlab berilgan. Xususan adib "Qutadg'u bilig" tilining badiiyatini taminlovchi leksik-stilistik vositalardan mahorat bilan foydalanganligi kishini lol qoldiradi. Mana shu sababli o'zbek xalqi ajdodlari qoldirgan bunday bebaho asarlarni doimo ardoqlab kelgan.

Turkiy tilni leksik boyligidan yuqori darajada xabardor bo'lgan Yusuf Xos Hojib ularni o'z o'rnida qo'llash borasida ham mohir edi. Ijodkorning so'z qo'llash uslubi, o'ziga xosligi, mahorati kabi jihatlar muayyan darajada bugungacha qaysidir yo'nalishda o'rganilgan bo'lsada, biroq "Qutadg'u bilig" asari tilining badiiyatini taminlovchi leksik vositalar, asar tili leksikasi to'lig'icha mukammal tadqiq qilinmagan. Shu bois Yusuf Xos Hojibga xos ko'p ma'noli so'zlarning ma'no

⁵Karimov I.A. yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2008 y. 38-bet.

xususiyatlari:sinonim,antonym,omonim, so'zlarning asarda qo'llanishi kabi masalalar tadqiqodning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi hozirga qadar qilingan ilmiy-tadqiqot ishlaridan shu xususiyati bilan ajralib turadiki, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari yuzasidan tadqiqod ishlari olib borgan S.Ibodov, H.Islomiy, F.Abdujabborovalarning ishlarida mavzu haqidagi umumiy fikrlar bayon qilingan.⁶ Ularning xizmatlarini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ularning teran mazmundagi tadqiqodlari Yusuf Xos Hojib asari tilini o'zbek tilida lingvistik aspektida o'rganishda poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ammo Yusuf Xos Hojib asari tilini leksik xususiyatlarini tahrir qilish borasida mukammal ish ko'zga tashlanmaydi. Shuning uchun adib ijodini chuqurroq tekshirish, uning o'ziga xos individual mahorat sirlarini ochib berish nafaqat adabiyotshunoslikning, balki biz tilshunoslarning ham oldimizda turgan muhim, ayni damda, katta mas'uliyat tiyg'usini yuklaydigan vazifalardan biridir.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.

Yusuf Xos Hojibga xos lingvistik mahoratni belgilashda adib badiiyatiga etibor qaratish, noyob durdonaning leksik xususiyatlarini tahlil qilish, leksemalarning etimologiyasi, qaysi qatlamga kirishi va ma'no munosabatiga ko'ra tahlil qilish ushbu magistrlik ishining asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

-badiiy asar tilining o'zbek tilshunosligi adabiyotshunosligida o'rganilish holatini baholagan holda ularni leksik xususiyatlar doirasida umumlashtirish;

⁶Karimov Q. Ilk badiiy doston. Toshkent: "Fan". 1976-yil. 219-bet.

-adib ijodining o'zbek tilshunosligida o'rganilish darajasini belgilash va uning bugungi kundagi dolzarb ahamiyatini ko'rsatib berish;

-Yusuf Xos Hojib asari tilining badiiyatini taminlovchi leksemalarning xususiyatini o'rganish;

-asardagi ayrim so'zlarning kelib chiqish tarixi va qaysi qatlamga mansubligini aniqlash;

-ijodkor asaridagi so'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlarini ochib berish;

-adib asarlarida qo'llangan ko'p ma'noli so'zlar va ularning semantik xususiyatlarini aniqlash;

Tadqiqot ob'yekti. Tadqiqot vazifalari va tahlil uslubi taqozosiga ko'ra ishda quyidagi asosiy manbalarga tayandik: leksikologiyaga doir turli ilmiy adabiyotlar, darsliklar, qo'llanmalar, maqolalar hamda internet ma'lumotlaridan foydalandik. O'rni bilan qiyosiy tahlil uchun Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asariga murojaat qilindi. Adib asarlarida qo'llangan tarixiy leksemalarning badiiylikka xizmat qilishini leksik aspektda tadqiq etish tadqiqod predmeti bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, adibning quyidagi asarlari ham manba vazifasini o'tadi:

1. Y.X.Hojib. Qutadg'u bilig. Internet.WWW. ziyouz. com kutubxonasi.
2. Y.X.Hojib.Qutadg'u bilig. Toshkent : «Yuluzcha »,1990-y.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- Yusuf Xos Hojib asari tilining leksikxususiyatlari tahlil qilindi;
- leksikologiyaning shakl va mazmun kategoriyasi belgilandi:individuallik leksikologiyaining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ko'rsatildi;
- o'z va o'zlashgan qatlam so'zlarining badiiy obrazlilik qimmati ko'rsatildi;
- sinonim so'zlarning ma'no qirralari, antonim sozlarning badiiy xususiyatlari, ko'p ma'noli so'zlarning va ma'no ko'chirish turlarining go'zal namunalarini asar misolida ko'rsatib berildi;
- asardagi leksemalarning tasviriyligi, estetik ta'sirchanligi isbotlandi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari. Prezidentimiz I.A.Karimovning milliy mafkura, madaniy qadriyat, milliy tilimizga doir nazariy qarashlari va yirik tilshunos olimlarning ilmiy ishlari ushbu Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asosini tashkil etadi. Asosan, semantik-stilistik, komponent tahlil, tavsiflash, qiyoslash, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda o'zbek tilshunoslaridan N.Rahmonov, Q.Sodiqov, Sh.Shoabduraxmonov, Sh.Rahmatullayev, U.Tursunov, X.Doniyorov, R.Qo'ng'irov, G'Abdurahmonov, B.O'rinboyev, M.Mirzayev, T.Rasulov, S.Tursunovlarning nazariy tadqiqotlari, darslik hamda o'quv qo'llanmalariga asos sifatida tayanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi. Ushbu tadqiqot kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 100 betni tashkil qiladi.

I BOB. “Qutadg’u bilig”da qo’llangan ayrim so’zlarning etimologiyasi.

1.1 “Qutadg’u bilig”dagi ayrim so’zlarning tarixiy asoslari.

Leksikologiya –tilshunoslikning leksik birliklarini o’rganuvchi sohasi hisoblanadi. Tildagi so’zlarning jami leksikasi (lug’at tarkibi)ni taskil etadi. Leksikologiya so’zining etimologiyasiga to’xtalsak, grekcha **leksikos-** so’z, **logos-** *ta’limot* degan ma’noni bildiradi.

Leksika atamasi tor ma’noda biror ish- faoliyat, kasb –hunar sohasida qo’llanuvchi so’z sifatida ishlatilishi ham mumkin: Navoiy leksikikasi, chorvadorlar leksikasi.⁷

Bu bo’lim tilning lug’at tarkibida sodir bo’ladigan turli hodisalarni o’rganadi:

- a) Iln-fan, madaniyat, ishlab chiqarish kabi sohalarning rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan yangi so’zlarni;
- b) Mavjud so’zlarning ba’zilarini istemoldan chiqib ketishini(sho’ro, mil, chechak);
- v) so’zlarning ma’nosida ko’chish(sovuq shamol, sovuq xabar) kabi ma’nolarni tekshiradi. Shu sababdan ham leksikologiya dastlab ikki turga bo’linadi:

1. Umumiy leksikologiya- qardosh yoki noqardosh til bo’lishidan qat’iy nazar, umuman inson tili so’z boyligini tekshiradi.

2.Xususiy leksikologiya- aniq bir tilning so’z boyligini o’rganadi.

Leksikologiyaning bu ikki tarmog’i o’zaro bog’langan holda ish ko’radi.

⁷O’zbek tilining izohli lug’ati. Moskva: 1981-yil. I tom.30-bet

Leksikologiyaning o'rganish obyekti bu –so'z ekanligi bizga ma'lum. Ammo so'zning 3 tarkibiy qismi o'zaro zich bog'langan.

1. Leksikologiya –soz yoki lug'at sostavi.
2. Semantika-so'zning ma'nosi.
3. Etimologiya-so'zning kelib chiqishi.⁸

“Qutadg'u bilig”da qo'llangan ayrim so'zlarning etimologiyasi xususida to'xtalib, undagi ayrim so'zlarning tarixiy asoslari haqida to'xtalib o'tamiz

So'zi shirin kerak **beg**, qiyiqsiz ko'ni,

So'zindan yanig'lig' tema erani.

Tilin so'zlamish yanmas eran,

So'zindan yznig'li ishandan eshi.

Bezandim **begim** bo'ldi xaqan, ulug'.

O'tundum, muku qulsa janim yulug'.

Bulit ko'kradi, urdi navbat tug'i,

Yashin yashnadi, yartti, xaqan tig'i.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Mazkur o'rindagi **beg** so'zi tarixiy termin bo'lib, “*shahar yoki viloyat hukmdori, yuqori martabali amaldor*” ma'nosini bildirgan va bu so'z qadimgi turkiy tilde “bag”, “bæg”⁹ tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik **a'** unlisi **e** unlisiga almashgan. Dastlab “*katta, yirik*” kabi ma'nolarni anglatgan, keyinchalik ma'no taraqqiyoti natijasida bu sifat otga aylangan; **g** undoshi **k** undoshiga almashgan;

⁸E.Qilichev. Hozirgi o'zbek adabiy tili Buxoro: 2005-yil.

⁹M.Qoshg'ariy. Devoni lug'otit turk. Indeks.Toshkent:1960-67-y. III tom;169-bet

beg<bek¹⁰ (Keying misollarimizda ham shu manbaga tayaniladi.)Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham mazkur so'z faol qo'llanadi.

Neku bar ajunda o'limdin qatug',
O'lumug' saqinsa ketar ming tatig'.
O'lum bir **tengiz**ul uchi yo'q tubi,
Baqa ko'rsa etru tubi yo'q batug'.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Mazkur banddagi **tengiz**so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilidagi**dengiz** leksemasining XI asr adabiy tili ko'rinishidir. Mazkur leksema ham juda qiziqarli jarayon asosida bizgacha yetib kelgan. Ushbu so'z qadimgi turkiy tilde ten,iz¹¹(keying misollarimizda ham shu manbaga tayaniladi)tarzida talaffuz qilingan. Manbalarga ko'ra bu so'z asli tengiz tarzida talaffuz qilinib,ten,iz shakli keyinroq vujudga kelgan.

Keyinchalik bu so'z boshlanishidagi **t** undoshi **d** undoshiga almashgan: **ten,+iz=ten,iz>den,iz**

Qamug'da qattiqraq o'lum ul firaq,
Firaqin to'kar **yash**ko'rugli qaraq.
Tirigla firaqqa visal bor uminch.
O'lugli visoldin sezigsiz yiraq.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

“Qayg'u yoki sevinch ta'sirida ko'z bezlaridan ajralib chiqadigan tiniq suyuqlik” ma'nosini bildiruvchi **yosh** leksemasi qadimgi turkiy tilde ham shunday ma'noni anglatgan. Bu ot **ya:sh** tarzida talaffuz qilingan, keyinroq **a:** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan. O'zbek tilida **a** unlisi **a^** unlisiga almashgan:

¹⁰Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent: "Universitet"-2000-yil.43-bet

¹¹M.Qoshg'ariy. Devoni lug'otit turk. Indeks.Toshkent:1960-67-y. III tom;374-bet.

ya:sh>yash>ya^sh. Bu soʻz asli “nam” maʼnosini anglatgan: *koʻz yashʼı* (koʻzning nami) ->*yash* (koʻzdan ajralib chiqadigan suyuqlik) .

Kisi alsa, oʻzdan quid **al**koʻni,
Sevinchin kechurgaysa oʻdlak kuni.
Yuzi koʻrki qilma, qilinch edgu qul,
Qilinch edgu boʻlsa yarutqa sani.

Xotin olsang, oʻzdan quyiroqni **ol**.
Sevinch-la kechar kunlaring bermalol.
Husn istama, xushfeʼlin istagin.
Agar boʻlsa xushfeʼl, toparsan kamol.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Baytdagi**al** soʻzi hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi **ol** soʻziga teng va qadimgi turkiy tilde ham hozirgi oʻzbek adabiy tilidagidek “*qoʻlga kirit*” maʼnosini anglatgan hamda**al** tarzida talaffuz qilingan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida **a** unlisi **a^** unlisiga almashgan: **al**-> **a^l**

Tuman tu chechaklar yazildi kula
Yipartoʻldi, kafur ajun yid bila.
Saba yali qoʻpti qaranfil yidin,
Ajun barcha butru **yipar**burdi kin.

Tuman xil chechaklar ochildi kula
Jahon toʻldi kofur, **ipor**hid bila.
Sabo yelida purkar is chinni gul,
Olamni muattar qilar **mushk** nuqul.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Yipar qadimgi turkiy tilde “*kiyikning moyagidan olinadigan xushboʻy modda,mushkva umuman xushboʻy narsalarning hidi*”” maʼnosini anglatgan va

yipar tarzida aytilgan. O'zbek tilida bu so'z boshlanishidagi **y** undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan, **a** unlisi **a^** unlisiga almashgan: **yipar** > **ipa^r**

Mazkur parchada ham “**xushbo'y hid, ya'ni chinnigulning xushbo'y hidi**” ma'nosini bildirib kelgan.

Ko'ngil kimni sevsa ko'rur ko'zda ul,
Ko'zun qancha baqsa uchar yuzda ul.
Ko'ngulda neki ersa arzu, tilak,
Ag'iz **ach**sa barcha tilin so'zda ul.

Ko'ngil kimni sevsu ko'zda turar,
Necha boqmasin ko'z yana orzular.
Dil orzu-tilagi nima bo'lsa gar,
Og'iz so'zga **och**gach u tilga chiqar.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Birinchi misradagi **och** leksemasi “*ochiq holatga keltir*” ma'nosini, Bunda fe'l so'z turkumiga mansub **och** so'zi, dastlab, “**ach**” tarzida qo'llanilgan va keyinchalik **a** tovushining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan. So'zlarda **a** unlisi **a^** unlisiga almashgan.

Ajunda alindim o'zumka o'ngi,
Qo'vuq, so'kni em gap, to'nim **qo'y** yungi.
Shakardan tatig'liq, qo'viq bo'z manga,
Jo'z ul bu o'zim to'n ag'ilar tengi.

Jahonda ro'zimni yedim har kungi
Qipiq, so'k-yemishim, to'nim **qo'y** yungi.
Shakardan shirinroq qipiqdir menga,
Menga bo'zliboslar ipaklar tengi.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

“Go’sht, sut, jun olish uchun boqiladigan juft tuyoqli sutemizuvchi uy hayvoni” hisoblanmish **qo’y** so’zi qadimgi turkiy tilde ham shu ma’noni anglatgan. Bundan tashqari **qoy, qon, qoj** tarzida ham talaffuz qilingan: **qoyun, qoyun** shakllari ham keltirilgan. Oxirgi ikki so’zdagi **–n** qo’shimchasi kichraytirish ma’nosini ifodalashi ham mumkin degan qarash ham mavjud. Mahmud Qoshg’ariy bu so’zning **qon** shakli **y** undoshining **n** undoshi bilan almashinuvi natijasida hosil bo’lganini ta’kidlaydi. Bundan tashqari **qoj, qosh** shakllari ma’nosi bilan bir-biridan farq qilgan. Chunki **qoy- sovliq, qoj-qo’chqor** ma’nosini anglatgan.

Tishi birla suhbat adi kad tatig’,

So’g’uq suqa yunmaq yanuti qatig’

Tatig’ qayda ersa tatig’siz bila

Suchig qayda ersa, so’nginda **achig’**

Ayol birla ishrat o’ta totlidir,

Sovuq suvga yunmog’I mushkul erur.

Shirin doim achchig’ bila birgadur.

Suchik qayda bo’lsa, so’ng **achchiq** kelur.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Achchiq so’zi qadimgi turkiy tildagi **a:chife**’liga **q** qo’shimchasini qo’shish yo’li bilan yasalgan. O’sha davrdayoq **a:** unlisining cho’ziqlik belgisi yo’qolgan. O’zbek tilida **ch** undoshi qavatlangan, **a** unlisi **a”** unlisiga almashgan, **yl** unlisining qattqlik belgisi yo’qolgan: **a:chyl+q=a:chyq> achylq>achchiq**

O’lurman o’kunchun, aqar ko’z yulun,

Tatig’lar tatig’siz qilar bu o’lum.

O'lumdan basa, ko'r, **eki** yo'l ko'daz,

Ekidaqayu erkibarg'u yo'lum.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ikki- "bir bilan uch orasidagi butun sanoq son"dir. Bu so'z asli qadimgi turkiy tildagi **ket**, **yon** ma'nosini anglatgan **ikotidan** –**i** qo'shimchasi bilan yasalgan:**ik+i=iki**. Qadimgi turkiy tildayoq bu so'zning ikki xil shakli mavjud bo'lgan: **iki** va **ikki**. Ikki so'zi **k** undoshining qavatlanishi natijasida yuzaga kelgan. Dastlab ketidagi ma'nosini anglatuvchi sifat bo'lgan (ikki son), keyinchalik o'zi miqdor ma'nosini anglatib, sanoq songa aylangan: **bir sonidan keyin keluvchi miqdor->birga birni qo'shish bilan hosil bo'ladigan miqdor**.

Qarindan chiqarding, qarinqa kirur,

Shakardin igidtim,**yilan**qa berur.

Esizim tiriglik, esizim tiriglik,

O'kunchun sig'it birla go'rka kirar

Qorindan chiqarur, yana kirguzur,

Shirin parvarishlab **ilonga** berur,

Esiz bu tiriklik, esiz bu ha,yot,

O'kinch-nola birla u go'rga kirur.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ilon- "uzun dumaloq tanali, terisi yordamida sudralib harakatlanadigan, ko'zlarida qovog'I yo'q jonivor". Bu ot qadimgi turkiy tildagi "qimirla-,jil-" ma'nosini anglatgan **yul** –felidan –**a(n)** qo'shimchasi bilan yasalgan.¹²

¹²M.Qoshg'ariy. Devoni lug'otit turk. Indeks.Toshkent:1960-67-y. III tom;36-bet.

O'zbek tilidagi so'z boshidagi y undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan, **a** unlisi **a^** unlisiga almashgan, **yl** unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: **yyl+an=yylan>ylan>ila^n**

Atang pandini san qatig' tut, qatig',

Qutadg'a, kunung bo'lg'a kundan tatig'.

Atangni, anangni sevundur tushi,

Yanut berga tapg'ung tuman ming asig'.

Otang pandini sen tugal qil amal.

Yurarsan bo'lib baxtiyor har mahal.

Otangni, anangni sevintir tamom,

Bu xizmat etirgay tilakka tugal.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ota- “*erkak kishi o'z farzandiga nisbatan*” ishlatiladigan so'z. Qadimgi turkiy tilde ham shunday ma'noni anglatgan bu so'z **ata** tarzida talaffuz qilingan. O'zbek tilida bu so'z boshlanishidagi **a** unlisi **a^** unlisiga, oxiridagi **a** unlisi **a''** unlisiga almashgan:**ata>a^ta''**

O'sanma qatig'lan, yukungni enit,

Yo'lung qilda yinchka, o'zungni qo'nit.

Bu kun yatma emgap, ishingki etin,

Kechar **emgaking** san ko'charda unit.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Emgak so'zi asli turkiycha leksema bo'lib, bu so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida "qiyinchilik" ma'nosini bildiradi. Mazkur ot dastlab qadimgi turkiy tilde "mehnat, mashaqqat" ma'nosini anglatgan **en**, otining **em** shaklidan **-ga** qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga **-k** qo'shimchasini qo'shib yasalgan: (**en, >em+ga**"=**emga**"-)+**k**= **emga**"**k**

Qilinch qari o'g'lan uzlug uqush,

O'qush qayda bo'lsa, angar bar, yapush.

Kichigi sevuglug, **qarisi** amul,

O'zi tuzun, alchaq, ko'r, asg'I o'gush.

Zako-yoshdek, oqil qaridek-zehn,

Zehn qayda bo'lsa, bor unga etin,

Qariligi savlat, go'zal yoshligi,

O'zi a'lo, afzal, talay, ko'r nafin.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Qari leksemasi etimologiyasi haqida to'xtalganda bu leksema "ko'p yashagan", "keksa" manosi anglatgani, qadimgi turkiy tilda "keksay" ma'nosini bildirgan **qarɨ** fe'lidan ma'no taraqqiyoti yo'li bilan ajralib "harakat" -> "shunday harakat oqibatida voqe bo'ladigan holat" ; o'zbek tilida **a** unlisi **ʻa** unlisiga almashgan, **ɨ** unlisining qattqlik belgisi yo'qolganligini bilishimiz mumkin: **qarɨ** -> **qarɨ** -> **qa**"ri.

Kishik til ag'irlar, topar qut kishi,

Kishig til ujuzlar, yarir er **bashi**.

Kishin til ulug'lar, topar qut kishi,

Kishin til tubanlar,yorilar **boshi**.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

“*Tananing bo'yindan yuqori (old) qismida joylashgan a'zo*” ma'nosini anglatuvchi **bosh** leksemasi qadimgi turkiy tilde ham shunday ma'noni anglatgan va asli **ba:sh** tarzida talaffuz qilingan, keyinroq **a:** unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan. O'zbek tilida **a** unlisi **a^** unlisiga almashgan: **ba:sh>bash>ba^sh**

Uqush ul yulateg qarangqu tuni

Bilig ul **yarug**lug', yarutti sani.

Uquvdir chirog'dek qarong'u kuni

Bilimdir **yorug**'lik, yoritgay seni.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Yarug–yorug' holatga kel ma'nosini anglatgan **yaru-** fe'lidan ot yasovchi **-q** qo'shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik **q** undoshi **g'** undoshiga, o'zbek tilida **a** unlisi **a^** unlisiga almashgan: **yaru+q=yarug>yarug'>ya^rug'**.

Udug'luq, bu saqliqni o'gdi eran.

O'sallik bila o'ldi er ming **tuman**.

O'sal bo'lma,saqlan qamug' ishda san,

O'sayug yarutti ekaguda san.

Tetiklik va soqlik- bu maqtov ishi.

G'ofillikdan o'ldi **tuman** ming kishi.

G'ofil bo'lma, soq bo'l jami ishda san.

G'ofil ikki olamda sarson boshi.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Tuman- “o’n ming” ma’nosini bildiradi. Qadimgi turkiy tilde ham shunday miqdorni bildirgan bu soʻz asli **to”ma”n** tarzida talaffuz qilingan. Oʻzbek tilida **o’** unlisining yumshoqlik belgisi yoʻqolgan: **to”ma”n>tuma”n**.

OʻZ QATLAM VA OʻZLASHGAN QATLAM SOʻZLARI

Hozirgi oʻzbek adabiy tilining lugʻat boyligi oʻzbek tilining butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Undagi soʻzlarning paydo boʻlish davri va kelib chiqish manbai ham har xildir.

Umuman, har qanday til oʻz lugʻat boyligi va grammatik qurilishiga ega boʻladi. Lekin xalqlar oʻrtasidagi uzoq tarixiy davrlar mobaynida davom etadigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar bu xalqlarning tillariga ham shubhasiz, oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Natijada bir tilga xos fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi bir tilga oʻtib, oʻzlashib ketadi. Bunday oʻzaro taʼsir etish, ayniqsa leksikada kuchli boʻladi.

Oʻzbek xalqi ham, oʻz tarixiy davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada boʻlganlar va bu xalqlarning tili oʻzbek tiliga maʼlum darajada oʻz taʼsirini qoldirgan. Xususan, boshqa tillardan oʻzbek tiliga koʻplab soʻzlar oʻzlashganini shu taʼsir bilan izohlash mumkin. Natijada oʻzbek tili lugʻat xazinasida leksik qatlam ham yuzaga kelgan.¹³

Oʻz qatlam – oʻzbek tili leksikasining umumturkiy soʻzlar va sof oʻzbek soʻzlaridan iborat qismlari.

Sof oʻzbek tili leksikasi qatlamiga oʻzbek tilining mustaqil til boʻlib shakllangan davrdan to bugunga qadar yasalgan soʻzlar kiradi. Bu soʻzlar faqat oʻzbek tilining oʻzida paydo boʻlganligi sababli umumturkiy hamda oʻzlashma soʻzlardan farqlanadi. Oʻzbekcha soʻzlar oʻzga tillardan olinmay, oʻzbek tilining oʻz ichki manbalari asosida yuzaga kelgan.¹⁴

¹³Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent: 1980

¹⁴Jalilova N. Oʻz qatlam asosida qon-qarindoshlik atamalarining shakllanishi” Til va adabiyot taʼlimi” jurnali. 2009: 1-son. 60-bet.

1. Umumturkiy soʻzlar oʻzbek tili leksikasining eng qadimgi lugʻaviy birliklaridir. Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirgʻiz, turkman, ozarbayjon tillarida ham saqlangan;

2. Sof oʻzbek tillari – oʻzbek tilining oʻzida yasalgan leksemalardir. Ular oʻz qatlamning ikkinchi qismini tashkil qiladi. Bunday yasashning quyidagi turlari bor: a) semantik usul – maʼno taraqqiyoti mahsuli sifatida yangi leksemaning yuzaga kelishi: koʻk –rang, koʻk- osmon kabi; b) affiksatsiya usuli – bunda oʻzak va affikslar turli til materiallari boʻlishi mumkin, ammo ularning qoʻshilishi oʻzbek tili tarkibida yuz beradi, oʻzbek tilinig soʻz yasash qoliplariga asoslanadi, shu sababli bunday yasama soʻzlar oʻzbek tilining oʻz qatlami birligi sanaladi. Masalan, **jang-** (fors-tojik) + **chi** (oʻzbek) =jangchi (Oʻzbek).

Oʻzlashgan qatlam – oʻzbek tili leksikasining boshqa tillardan oʻzlashtirilgan leksemalardan iborat qismi. Bu qismga arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan soʻz oʻzlashtiriladi.

Yusuf Xos Hojibdaning “Qutadgʻu bilig” asarida qoʻllangan soʻzlarni tadqiq qilishdan koʻzlangan asosiy maqsad adibning leksika sohasida tutgan yoʻlini belgilash barobarida XI asr oxirlaridagi oʻzbek tili leksikasining maʼlum bir jihat va xususiyatlariga hamda holatiga ayrim oydinliklar ham kiritib oʻtishdan iborat.

Tuman tu chechaklar yazildi kula

Yipar toʻldi, kafur ajun yid bila.

Saba yali qoʻpti qaranfil yidin,

Ajun barcha butru yipar burdi kin.

Tuman xil chechaklar ochildi kula

Jahon toʻldi kofur, ipor hid bila.

Saboyelida purkar is chinni gul,

Olamni muattar qilar **mushk** nuqul.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ushbu o'rindagi **sabo**(صباء), leksemalari o'zbek tiliga arab tili leksikasidan o'zlashgan bo'lib, **sabo-** "*saboh-sharqiy shamol; yoshlik*" kabi ma'nolarni anglatgan(O'TIL.III.410-bet).Mazkur leksemani qo'llash bilan adib baytga o'zgacha bir zojiba, badiiylik baxsh etmoqda adibning naqadar keng falsafiy tafakkur egasi ekanligini namoyon qilmoqda.

Hozirgi o'zbek tili leksikasida arab tilidan o'zlashtirilgan leksemalarining ko'pchiligi ot, sifat va ravish turkumiga mansubdir. Arab tilidan so'z o'zlashtirilishi o'tmishda faol bo'lgan, hozir esa bu jarayon deyarli to'xtagan.¹⁵

Tili yolg'on erning **jafa**qilqi ul,
Jafa kimda ersa asha yilqi ul.
Kishi yalg'anindin tilama **vafa**,
Bu bir so'z sinamish o'gush yilqi ul.

Tili yolg'on erning **jafo**xulqidir,
Jafo kimda bo'lsa osha yilqidur.
Kishi yolg'onidan**vafo** kutmagin,
Bu so'z sinalgan talay yilgidir.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Antonim so'z hisoblangan **vafo-jafo** so'zlari arab tilidan o'zlashgan leksemalar bo'lib,**Vafo-**(**وفا**) "*yorga,do'stga, yaqin kishilarga sadoqat;o'z ahd-paymonini muqaddas tutish,so'zda, va'dada qat'iy turish,*"(O'TIL.I.174-bet) ma'nosini, **jafo**(**جفا**)so'zi esa "*ma'naviy, ruhiy va jismoniy ezilish,azob uqubat kulfat*"(O'til.I.275-bet) ma'nolarini anglatadi. Ushbu ikki zid tushunchalar bir bandning o'zida kelib ma'zmunga o'zgacha bir mohiyat kasb etmoqda va kitobxonni chuqurroq mushohadaga chorlamoqda.

"Qutadg'u bilig" asarida ijodkor o'zlashgan so'zlarni qo'llar ekan, u juda ko'p omil va xususiyatlarni hisobga olilshga harakat qilgan: qo'llanayotgan

¹⁵Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent: "To'lqin",2005.190-bet.

o`zlashma so`z ma`no mazmuni keng, xalq ommasi uchun to`la va aniq, tushunarli bo`lishi kerak; qo`llanayotgan o`zlashma so`z xalqning ongiga chuqur singgan bo`lishi; uning yot unsur ekanligi bilinmasligi kerak; o`zlashgan so`z xalqning jonli so`zlashuv uslubida qo`llanishi lozim.

O`gdulmish uquv-idrokning nomi. U kishini ulug`laydi. Bo`lagi

O`zg`urmishdir. Uni **ofiyat** dedim.

(Qutadg`u bilig.20-bet)

**Boqijon To`xliyev** tabdilidanolingan mazkur gapdagi **Ofiyat**(ءؤيت)- so`zi ham arab tilidan o`zbek tiliga o`zlashib, “*sog`liq, yaxshi kayfiyat, xotirjamlik*” ma`nolarini bildirgan va hozirgi adabiy tilda bu so`z eskirgan kitobiy leksema hisoblanadi.(O`TIL.III.159-bet) Asarda ham bu so`z qanoat timsoli sanalmish O`zg`urmishning xususiyati, xislatini yoritish maqsadida adib tomonidan qo`llangan. Bundan ko`rinib turibdiki, *ofiyat* leksemasi o`z davrining faol qatlam leksemalaridan biri hisoblangan.

Turk tiliga arab tilidan o`zlashgan bunday leksemalarni Yusuf Xos Hojib asarida ko`plab uchratish mumkin:

Bayat berdi **davlat** ey turkan quti,
Aning shukri qilg`u o`qib ming oti
Edi kechki so`z ul **masal**da kelir
Ata o`rni ati o`g`ulqa qalir.

Xudo berdi **davlat**, ey turklar quti,
Shukurga sazovor uning ming oti.
Juda ko`hna so`z bor **masal**da kelar
Ota o`rni, oti o`g`ilga qolar.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Masal(مثال) so`zi ham arab tili leksikasidan o`zlashgan bo`lib, “*na`muna, andoza*” ma`nolarini anglatadi(O`TIL.II.549-bet). Mazkur so`z bilan bog`liq adabiy janr ham mavjud va u kishilarga o`git bo`ladigan, xulosali kichik majoziy

hikoyani bildiradi. Mazkur o'rinda esa masal so'zi ana shunday xulosali maqol, ibora ma'nosida qo'llangan va mazmunni boyitishga xizmat qilgan. **Davlat**(**دولت**)–mamlakat ma'nosini bildirib, “*o'z fuqarolarining ijtimoiy huquqlarini himoya qiluvchi bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo'lgan mustaqil mamlakat*” ma'nosini anglatadi. Ko'rinib turibdiki, baytda turkiy til leksikasi bilan arab tili so'zlarining barobar qo'llanilishi o'sha davr adabiy tili leksikasidan xabar beradi, bizga.

Ede ma batig' **handas**asaqishi,
Anin tezg'inur, xo'r, **hakim**lar bashi,
Aqinteg barir bu eti qat ko'kug,
Adurti sachimteg birar saqishi.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ushbu gapdagi **handasa** (**هندسة**), **hakim** (**حكيم**)so'zlari arab tilidan turk tiliga o'zlashgan o'zlashma so'zlar bo'lib, handasa hozirgi “geometriya” fani nomini bildiradi. Hakimso'zi esa “*dono, oqil, donishmand; tabib, faylasuf*”ma'nolarini bildirib bugungi kundagi **o'tkir tabib, shifokorga** teng keladi. Bu ikkala leksema faol leksema sifatida bo'lmasada, bugungi kun ijodkorlarining qahramonlari nutqi sifatida badiiy asarlarda qo'llanadi.

Yana yemirildi bu to'lgan oyi,

Qodir qishga kirdi bahor chiroyi.

Yarashiq **mijozi** qorishdi tugal,

Birisi kuchaydi, birin bossa sal.

Mijozi aynidi, osh bo'ldi zahar,

Cho'kib ketdiko'ngli, dard oshdi battar.

(Qutadg'u bilig.32-bet)

Arabchada "kishining tabiati; kayfiyat; gavda tuzilish" ma'nosini anglatuvchi **mijoz**(مخالز)so'zi baytda qo'llanib, ma'noni boyitishga xizmat qilmoqda.

O'zak va affikslar turli til materiallari bo'lishi mumkin, ammo ularning qo'shilishi o'zbek tili tarkibida yuz beradi, o'zbek tilinig so'z yasash qoliplariga asoslanadi, shu sababli bunday yasama so'zlar o'zbek tilining o'z qatlami birligi sanaladi.¹⁶

Bunday leksemani Boqijon To'xliyev tabdilida uchratish mumkin:

Nima der, eshitgin, mehribon kishi,

Mehribonlik asli kishilik boshi.

Oqibatlikishi o'gitini ol,

Bu o'git bo'ladi zo'r davlat misol.

(Qutadg'u bilig. 33-bet)

Ushbu banddagi **oqibatli**(ءاقبت)so'zining asosi (*oqibat*) arab tilidan o'zlashgan so'z va **-li** o'zbek tiliga xos so'z yasovchi qo'shimchadir. So'z yasovchi affiks o'z qatlamga mansub bo'lganligi sababli ham "oqibatli"so'zi o'z qatlamga xos so'z hisoblanadi. Bunday so'zlar o'zbek tilining boyishiga xizmat qiladi. O'zbek tilida shunday o'zlashma so'zlar borki, ularda yot unsurlar umuman sezilmaydi, xalqning so'zlashuv uslubiga singib ketgan. Bu ham bo'lsa tillar bir-biri orqali boyishiga muhim dalildir.

Fasad tegra turma, yurima yaruq,

Fasad qayda bo'lsa ujuzluq anuq.

Fasadbirla **davlat** turumas qachar,

Qali tursa tang yo'q, tunarcha qo'nuq.

¹⁶Jalilova N.O'z qatlam asosida qon-qarindoshlik atamalarining shakllanishi" Til va adabiyot ta'limi" jurnali.2009. 1-son.60-bet

*Fasod*ga yaqin yurma bu ish chatoq,
Fasod qayda bo'lsa –tubanlik u boq.
Fasod birla **davlatt**urolmas qochar.
Ag'ar tursa, tong yo'q, tunovchi qo'noq.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Fasod (فساد) va **davlat**(دولت) so'zlari arab tilidan o'zlashgan so'zlar bo'lib, turkiy tilga o'tgan. Bunda “fasod“ so'zi dastlab “yiring”ni, ko'chma ma'noda esa “*fitnalik bilan qilingan g'iybat, ig'vo*”(O'TIL. IV.334-bet) ma'nosini, “**davlat**” leksemasi esa “*boylik, mol-dunyo, mol-mulk*” (O'TIL. I.537-bet)semalarini bildiradi

Tushungteg kechurding tiriglik o'dug',

Qani asg'i ko'rgit menga bir bo'dug'.

Kunungni kechurdung **tilak**, **arzu**qa.

Tiriglik tugadi, o'kunch ul qamug'.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Bunda sinonim bo'lib kelgan **tilak**,**arzu**leksemalaridan **arzu**- fosd-tojik tilidan o'zlashib, “*dildagi istak: ezgu umid, intilish*” (O'.T.I.L. Itom. 541-bet)ma'nosini,**tilak** esa turkcha leksema sifatida “*biror narsani amalga oshirish uchun bo'lgan intilish,istak, xohish*” (O'.T.I.L. Itom. 175-bet) ma'nolarini bildiradi.

Ko'rinib turganidek, “Qutadg'u bilig” asarida o'zlashgan qatlam so'zlarining o'z qatlam leksemalari bila bir qatorda yot leksemaligi sezilmasdan qo'llanishi tilimizning qadimdan boshqa tillar bilan keng aloqada bo'lganligidan va bunda mamlakatlarning ham ahamiyati kattaligidan dalolat beradi.

Shu sababdan ham biz mazkur I bobda asl turkiy so'zlarning etimologiyasi va hozirgi adabiy tilda qo'llanilish usuli bilan birga arab tilidan o'zlashgan leksemalarning XI asrda ishlatilishi, bugungi kundagi ma'no taraqqiyotini tahlil

qildik. Buni o'zlashgan qatlam leksikasi bo'lgan **ofiyat** so'zining o'z davrida faol, ammo hozirgi o'zbek adabiy tilida eskirgan leksemaga aylanganidan yoki dengiz leksemasining dastlab **ten,iz** shaklida talaffuz qilingani-yu bugungacha qanday fonetik o'zgarishlarga uchraganidan bilishimiz mumkin.

II BOB. Qutadg'u bilig" asaridagi so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

1.1 Asarda qo'llangan sinonim so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari

Ma'lumki, tilning boyligi va nutqning jozibadorligi, ta'sirchanligini ta'minlashda sinonimlarning ahamiyati katta. Sinonimik qatorni tashkil etgan so'zlar qaysidir ma'no qirralari bilan bir-biridan farqlanadi va o'z navbatida ma'no nozikligini ta'minlaydi. "Sinonimlar nutqda qaytariqlarga yo'l qo'ymaslik, nutqni ravon tuzish imkoniyatini beradi."¹⁷

Shaklan har xil , ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar **sinonim** deyiladi. Sinonim leksema orasidagi munosabat deb yuritiladi.¹⁸

Sinonim leksema sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi.

Bir umumiy (birlashtiruvchi) ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar gruppasi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topishi mumkin. So'zlarni sinonim qiladigan narsa ularning bir xil ma'noga egaligi ekan, ko'p ma'nosida boshqa so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonim qatorda bo'lishi mumkin.¹⁹

Sinonimlar odatda bir xil ma'noli so'zlar, bir-biriga yaqin ma'noli so'zlar, yaqin yoki bir ma'noli so'zlar, lekin uslubiy bo'yoqlari qo'llanish sathlari faqlanuvchi so'zlar sifatida ta'riflanadi. Ta'riflardan ko'rinib turibdiki, sinonimlar

¹⁷O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: 1981-yil 244-bet.

¹⁸To'xliyev B, Shamsiyev M, .Ziyodova J .O'zbek tili o'qitish metodikasi .Toshkent:2006.70-bet.

¹⁹Shoabdurahmonov Sh va boshqalar.Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshken:,1980.114-bet.

chegarasi fanda unchalik aniq emas, cho`chimoq-hayiqmoq-qo`rqmoq qatorida harakat belgi darajasi turlicha atalmoqda.²⁰

Sinonimlarning mohiyatini to`g`ri tushunish uchun ikki hodisani bir-biridan farqlash lozim:

- 1.Tushuncha va so`z, ularning o`zaro munosabati;
- 2.So`z va uning ma`nolari, har bir so`zning ma`no ottenkalari.²¹

Ma`nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli-tuman , ularning ayrimlari quyidagilar:

- 1.Ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi;
2. Leksemalarning qo`llanish davrini ko`rsatuvchi sema:”eskirgan”, “yangi”, “o`ta yangi”, “arxaik”.
3. Leksemalarning qo`llanish doirasini ko`rsatuvchi sema: “shevaga xos”, “so`zlashuvga xos”, “kitobiy”, “ko`tarinkilik” va boshqalar.

Shuning uchun ham an`anaviy sinonimlarni:

1. Bir atalmishni (denotatni , borliq-hodisani) turli munosabatlar bo`yog`i bilan atovchi so`zlar guruhi;
2. Atalmishdagi belgini turli darajalarda ifodalovchi so`zlar guruhi.²²

Sinonimlar obrazlilik, emotsionallik, ta`kidni ta`minlash maqsadida ham keng qo`llanadi. Buni Yusuf Xos Hojib asari misolida ham ko`rishimiz mumkin:

Qamug` nangka vaqt ul, kuni belguluk,

Nafas, tin to`qurqa sani belguluk.

Yil, ay, kun kechartek tiriklik kechar,

²⁰Hojiyev A.O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati.Toshkent:1970.262-bet.

²¹Qilichev E.Hozirgi o`zbek adabiy tili . Buxoro: 2009.68-bet.

²²Sayfullayeva R va boshqalar.. Hozirgi o`zbek adabiy tili .Toshkent:2009.114-bet.

Kechar kun kechirkay sani belgulik.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ma'nodosh so'z sifatida misrada kelgan **nafas, tin** to'qurqa so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida **dam olmoq, nafas olmoq, tin olmoq** kabi ma'nolarni anglatib keladi (O'TSIL 145-bet). Mazkur so'zlar o'zining "*orom olmoq, hordiq olmoq*" ma'nosi bilan bir sinonimik qatorni tashkil etadi. Bunda 'nafas olmoq' so'ziga nisbatan "tin olmoq" so'zida ma'no o'ttenkasi kuchliroq va badiiy uslubga xos so'z hisoblanadi. Mazkur leksemalar she'rdagi nutqiy ta'sirchanlikni oshirgan. Ushbu sinonim so'zlar she'rdagi o'ynoqi ohang hamda jozibadorlikni ta'minlagan.

Tirig beg kishika kerak edgu yang,

Kerak bo'lsa bulg'ay qamug' edgu nang.

Esizka nekulug kerak **mal, tavar**.

Necha kirsar bo'lg'ay chig'ay birla teng.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Mol, tovar so'zlari mazkur bandda ma'nodosh sifatida qo'llangan. So'zlarni sinonimik qatorga ajratishda ularning grammatik va leksik ma'nolariga tayaniladi. Chunonchi, sinonimik qatordagi so'zlarning grammatik ma'nolari bir xil bo'ladi va bir so'z turkumiga kiruvchi til birliklaridan tashkil topadi. Ushbu sinonim so'zlar ot so'z turkumiga doir bo'lib, **mol** so'zi bosh so'zdir.

Mol –arabcha "*boylik, mulk, pul jamg'armasi*" ma'nosini (O'TIL III 610-bet), **tovar** esa "*talab, ehtiyojni taminlovchi oldi-sotdi, bozor munosabatlarining obyekt*" (O'TIL III 610-bet) ma'nosini bildiradi. Bu yerda 'tovar'ga nisbatan "mol" leksemasining ishlatilish doirasi kengroq. Shuning uchun ham she'rda ohangdorlik hamda ma'no o'ynoqiligi yuzaga kelmoqda.

Tushungteg kechurding tiriglik o'dug',

Qani asg'i ko'rgit menga bir bo'dug'.

Kunungni kechurdung **tilak, arzuqa**.

Tiriglik tugadi, o'kunch ul qamug'.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Boshliq eliga **to'g'rilik** va **adolat** ko'rsatsa, u barcha **tilak** va **orzulariga** yetadi.

(Qutadg'u bilig. 25-bet)

Tilak, **arzu-tilak** va **orzu** leksemalari leksik sinonimlikni yuzaga keltirib, oddiy sinonimik qatorda birlashgan. Bunda **orzu** fosd-tojik tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, *"dildagi istak: ezgu umid, intilish"* (O'.T.I.L. Itom. 541-bet) ma'nosini, **tilak** esa turkcha leksema sifatida *"biror narsani amalga oshirish uchun bo'lgan intilish, istak, xohish"* (O'.T.I.L. Itom. 175-bet) ma'nolarini bildiradi. Ushbu ma'nodoshlik qatorida **tilak** leksemasiga nisbatan **orzu** leksemasida poetiklik mavjud va shuning uchun ham badiiy nutqda ko'pincha **tilak** so'ziga nisbatan **orzu** leksemasi ishlatiladi. Bu esa nutqning chiroyli, shuning barobarida ta'sirchan bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Adib barcha tillarning so'z boyligidan o'rinni foydalangan. Mazkur bandda ham sinonim so'zlarni qo'llab poetik maqsadini amalga oshirgan.

To'g'rilik -"tik, adil" ma'nolaridan o'sib chiqqan *"quvlik, shumlik qing'irlik va shu kabilarni bilmaydigan: halollik, vijdonlilik"* (O'.T.I.L. Itom. 260-bet) ma'nosini anglatadi. **Adolat** -"odilona va xolisona ish tutish, haqqoniyat, haqqoniylik, odillik" (O'.T.I.L. Itom. 27-bet) ma'nosini bildiradi. Ushbu o'rinda sinonim bo'lmagan ikkiso'z matn ichida ma'nodoshlikni hosil qilgan. Bu esa **kontekstual sinonimlik** deyiladi.

Asarda leksemalar o'rtasidagi sinonimlik bilan bir qatorda so'z va iboralar o'rtasida ham sinonimlikni kuzatish mumkin:

Biliglig kerak bir, **uqushlug'**, **udug'**

Angar tegmasa bir mo'facha yudug'.

Qilinchedgu, **erdam**kerak ming tuman.

Ati edgu bo'lsa, tutunsa budug'.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Mazkur she'rdagi sinonim so'z sifatida Y.X.Hojib **uqushlug'**, **udug'**, **qilinch**, **erdam** leksemalarini qo'llagan. Bu so'zlar Qayum Karimov tomonidan **dono bo'lish**, **oqil bo'lish**, **xislat**, **fe'l** deya tabdil qilingan. **Qilinch(xislat)**- "*kishining muhim ijobiy belgisi: sifati, xususiyati*," (O'TIL. IV.402-bet) ma'nosini **erdam(fe'l)** so'zi- "*kishi xarakterini tashkil etuvchi ruhiy xususiyatlar va undan yuzaga keluvchi hatti-harakatlar majmui*" (O'TIL. IV. 340-bet)ni bildiradi. Bunday sinonim so'zlar adibning mahoratini ko'rsatmoqda va o'rinsiz qaytariqlarning oldini olishga xizmat qilyapti.

Kerak **oqil**, **dono** va hushyor **bo'lish**,

To insonga yuz urmagay dushvor ish.

Kerak ming tuman **xislat**-u ezgu **fe'l**.

Er otin qilur ezgu o'zni tutish.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ushbu o'rinda sifat so'z turkumiga oid leksemalar bir sinonimik qatorni tashkil etgan. Bunda sifat so'z turkumiga kiruvchi **uqushlug'(oqil)**- "*o'tkir aql sohibi, aqlli*," (O'TIL III 178-bet), **udug'(dono)** so'zi "*aql-zakovatli, donishmand, oqil*" (O.T.I.L.I tom.234-bet) ma'nosini bildiradi. Bu esa fikrda ta'sirchanlikni yuzaga keltiradi.

Asal yangluq o'g'li o'gush nang terar

Nekuka, tegarmu, saqinmas birar.

Buyursa, tilakini tapsa tugal,

Tugatur tiriglik **ajal, jan berar.**

G'ofil inson o'g'li talay mol terar,

Nima muddaoda, tushunmay biror.

Boyisa, tilagini topsa tugal,

Tugatur hayotni, **o'lar, jon berar.**

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

“*Yashashdan to'xtamoq*” ma'nosini anglatuvchi **ajal(o'lmoq)** so'zi frazeologik birikma sanalmish **jan berar(jon bermoq)** iborasi bilan o'zaro sinonimlikni hosil qilmoqda. “O'lmoq” leksemasi sinonimik qatorda dominanta so'z hisoblanadi. Adib bosh so'zdan keyin xuddi shunday ma'noni anglatuvchi iborani keltirish bilan fikrda ta'kid, ma'noda kuchaytirish va ta'sirchanlikni hosil qilgan.

“Qutadg'u bilig”- noyob mumtoz durdona asar. Shu boisdan ham bu bebaho asar ustida, uning tabdili yuzasidan olimlarimiz tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shulardan biri Boqijon To'xliyev tomonidan tabdil qilinib, 1990-yilda “Yulduzcha” nashriyoti tomonidan keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan nusxadir. Tabdilda olim asar mohiyat va mazmunini ochib berish uchun bor imkoniyatini ishga solgan. Buning uchun asl nusxaga tayangan holda betakror so'z va iboralardan, chiroyli qochirimlardan unumli foydalangan.

Yuqoridagi kabi sinonim so'zlarning go'zal na'munalari uchraydi bu asarda:

Mamlakatni boshqarish ishlari kundan kunga og'irlashardi. Shuning uchun u **tadbirkor** va oqil, hozirjavob va **ishning ko'zini biladigan** yordamchilarga, bir so'z bilan aytganda **komil** va **yetuk** , faol kishilarga muhtojlik sezardi.

(Qutadg'u bilig. 20-bet)

Mazkur gapda adib ***komil, yetuk*** so'zlarini ketma-ket keltirib ma'noni kuchliroq ifodalash bilan bir qatorda, ***“tadbirkor”***–(*tadbir bilan ish qiladigan*) leksemasi va ***“Ishning ko'zini biladigan”*** iborasini ham sinonim sifatida qo'llagan va bunda ham kuchli ma'no, ham ta'kid ifodalangan.

Vazir ***ochiq dil, ko'nglida kir saqlamaydigan***bo'lmog'i kerak.

(Qutadg'u bilig. 53-bet)

Ushbu gapda “ochiq” so'zining ko'chma ma'nosi bilan ibora bir sinonimik qatorni tashkil etib ***“xushfe'l, yuragida kiri yo'q, xushchaqchaq”*** (O'.T.I.L. Itom. 552-bet) ma'nosini ifodalayapti. Natijada, ifoda kambag'alligi va g'alizligi bartaraf etilmoqda.

“Qutadg'u bilig”asarida miqyosli tafakkur madaniyati va tahlil mahorati bilan yuksak ma'naviy intilishlar va badiiy did birlashib ketgan.Hattoki, mavhum tushunchalar ham mahoratli rassom singari so'z bilan tasvirlangan. Yusuf xos Hojb o'z qarashlari va o'gitlarini, mulohazalarini satrga solib, ularni o'ziga xos, hech kimda uchramaydigan o'xshatishlar orqali tasvirlaydi:

Neku bar ajunda angar hiylasiz,

Neku hiyla bardur angar charasiz,

Qamug' nanhka ***hiyla, etig, charabar***,

Magar bu o'lumka, o'lum hiylasiz.

Nima bor jahonda biror hiylasiz,

Yana hiyla bormi biror chorasiz.

Hama ishga ***hiyla, iloj, chora*** bor,

Amon yo'q o'limdan, o'lim hiylasiz.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Mazkur bandeda **iloj, chora** leksemalari leksik sinonimlik qatorini hosil qilib, “*biror ishni, maqsadni amalga oshirish, ro’yobga chiqarish yoki uning oldini olish uichun puxta o’ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan tadbirlar majmui*”(O’TIL IV 508-bet) ma’nosini bildiradi va o’z navbatida “*ayyorlik, makorlik, aldovchi, chalg’ituvchi ish, tadbir*” ma’nosini anglatuvchi fors –tjikcha so’z bo’lgan **hiyla** so’zi bilan sinonimlikni hosil qilmoqda. Bunda hiyla so’zining asl “*makkorlik, ayyorlik*” ma’nosi chekinib, “*tadbir, yo’l*” manosi yuzaga chiqqan.

Sinonimlar obrazlilik, emotsionallik, ta’kidni ta’minlash maqsadida ham keng qo’llanadi. Buni Yusuf Xos Hojib asari misolida ko’rishimiz mumkin:

Kerak erka **himmat, muruvvat**yangi,

Yafus, yunchug andin yirasa o’ngi.

Kishilikka **himmat, muruvvat**kerak,

Kishi qadri **himmat, muruvvat** tengi.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Himmat –birovga qilinadigan yaxshilik, marhamat, yordam, saxovat, olijanoblik (O’.T.I.L. II tom 698-bet) ma’nosini, **muruvvat** esa odamgatchilik yuzasidan qilingan yaxshilik; saxovat, himmat (O’.T.I.L. I tom 482-bet) ma’nolarini bildiradi. Mazkur o’rinda himmat leksemasida muruvvat leksemasiga nisbatan “saxovatlilik, karamlilik” semasi kuchliroq va bu bandeda badiiylilikni, ma’noda jozibani, aniqlikni yuzaga keltirmoqda.

Ma’lumki, tilning boyligi va nutqning jozibadorligi, ta’sirchanligini ta’minlashda sinonimlarning ahamiyati katta. Sinonimik qatorni tashkil etgan so’zlar qaysidir ma’no qirralari bilan bir-biridan farqlanadi va o’z navbatida ma’no nozikligini ta’minlaydi. “Sinonimlar nutqda qaytariqlarga yo’l qo’ymaslik, nutqni ravon tuzish imkoniyatini beradi.”²³

Qarindan chiqarding, qarinqa kirur,

²³O’zbek tili leksikologiyasi. Toshkent :1981-yil 244-bet.

Shakardin igidtim,yilanqa berur.

Esizim tiriglik, esizim tiriglik,

O'kunchun sig'it birla go'rka kirar

Qorindan chiqarur, yana kirguzur,

Shirin parvarishlabilonga berur,

Esiz bu tiriklik, esiz bu hayot,

O'kinch-nolabirla u go'rga kirur.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

O'kunchun-O'kinch, sig'it-nolaso'zlari ijodkor talabi bilan mazkur she'rda kontekstual sinonimlik munosabatiga kirishtirilgan. Bunda ***o'kinch-*** “*nomaqbul, ko'ngilsiz ish, hodisa va uni tuzatib bo'lmaslik tuyg'usi tufayli yuz beradigan g'amginlik, xafalik*”(O"NIL. IV, 145-bet) ma'nosini, ***nola***leksemasi esa-“*g'am-alam, hasrat ifodalovchi ayanchli ovoz*” (O"NIL.III.52-bet) ma'nosini bildiradi. Bir-biridan farq qiluvchi ma'no bildirgan leksemalar bir sinonimik qatorda kelib ***kontekstual sinonimlikni*** yuzaga keltirmoqda.

Boqijon To'xliyev asarni tabdilini keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallagani uchun ham unda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi sinonim so'zlar ko'plab uchraydi. Biz ilmiy tadqiqot ishimizda ana shunday leksemalarni ham tahlilga tortdik:

Bilim o'ylab ko'rilsa misoli bir jilov. U barcha ***yomon, yaramas*** ishlardan tiyib turadi.

(Qutadg'u bilig. 12-bet)

Mazkur o'rindagi ***“yomon”***so'ziga nisbatan ***“yaramas”*** leksemasining ma'no ottenkasi kuchliroq. Su sababdan ham “yomon” leksemasi “yaramas” so'zining ko'chma ***“yomon, qabih, noqobil”***semasi bilan sinonimlik hosil qilgan. Bu esa fikrda ta'kid, ifodada kuchaytirish va ma'no ta'sirchanligini yuzaga

keltirishga xizmat qilmoqda. *Yomon, yaramasma`nodosh* so`zlari she`rdagi ta`sirchanlik hamda ekspressiv-ikni ta`minlash maqsadida qo`llangan.

Telba, tentak, aqli zaif bo`lganlargina boshqalarning savol va qiziqishlarini kutib turmasdan, gap boshlab yubora beradilar.

(Qutadg`u bilig. 28-bet)

Ushbu gapdagi ***telba, tentak, aqli zaif*** sinonim so`zlari “*devona*” dominanta so`zi atrofida birlashib, bir sinonimik qatorni tashkil qiladi. Mazkur sinonimik qatorda “***aqli zaif***” so`ziga nisbatan “***tentak***”da, o`z navbatida “*tentak*”ka qaraganda “***telba***”da ekspressiv bo`yoqdorlik ko`proq. *Telba* so`zining ma`nodoshlari sanalmish *tentak, aqli zaif* so`zlarini ma`noni kuchaytirish va badiiylilikni oshirish maqsadida qo`llagan. Ijodkor sinonim so`zlardan o`rinsiz takrorlarning oldini olish maqsadida foydalangan.

Kishi ezgulik qilishi kerak. Ezguning har bir qadami ***chiroyli***, har bir qadami ***go`zal***.

(Qutadg`u bilig. 19-bet)

Chiroyli leksemasiga nisbatan ***go`zal*** leksemasida badiiylilik, poetiklik yuqori. Adib avval dominantani keltirib, u orqali ta`kid ma`nosini ifodalagan. Sinonimlarning o`rni va imkoniyati faqatgina badiiy nutqdagina emas, nutqning barcha ko`rinishlarida keng hisoblanadi.

Dunyoda har bir so`zini o`ylab, tushunib, gapiradiganlar ham talay.

Ularni tushunganlar esa ***azizva mo`tabar***.

(Qutadg`u bilig. 14-bet)

Mazkur o`rindagi ***aziz*** so`zi “*izzat-hurmatga sazovor, qadrli, qimmatli, muhtaram*”(O`.T.I.L I tom. 30-bet) ma`nosini, ***mo`tabar*** esa “*e`tibor topgan, ishonch qozongan, etiborli*”(O`.T.I.L II tom. 30-bet) ma`nosini anglatadi. Ushbu leksemalardan *aziz* so`zidagi “*izzat-hurmatga sazovor*” semasi bilan *mo`tabar*

leksemasidagi “e’tibor topgan, etiborli” semasi o’zaro ma’nodoshlik hosil qilgan. Bu esa mazmunning aniq, tasirchan chiqishiga xizmat qilmoqda.

Kuntug’di... ishlarini olijanoblik va saxovat bilan yuritganidan mamlakatda **farovonlik** va **osoyishtalik** hukm surar edi.

(Qutadg’u bilig. 21-bet)

O’zaro ma’nodoshlik hosil qilgan **farovonlik**, “*har jihatdan to’la-to’kis ta’minlangan, hamma narsasi mo’l-ko’l*” (O’.T.I.L II tom. 296-bet), va **osoyishtalik** leksemalari “*urush-janjaldan, g’avg’o-tashvishdan xoli; tinch, bexavotir, xotirjam*” (O’.T.I.L I tom. 546-bet) kabi ma’nolarni bildiradi

Umring uzun bo’lsin, ey **jo’mard, botir**,

Buni yaxshi tingla, ey **mard, bahodir**.

(Qutadg’u bilig. 66-bet)

Mazkur baytdagi “**Botir**”-*yurak shijoati zo’r, yurak shijoati bilan ish qiladigan, mard -so’zida tanti turadigan*, (O’.T.S.L.65-bet), **bahodir, jo’mard-azamat, qudratli, himmatli** (O’.T.I.L.I tom.91-bet) so’zlari o’zaro sinonimik munosabatga kirishgan bo’lib, ushbu leksemalar o’z semalari bilan misralarda ma’no no’zikligini ta’minlamoqda. Chunki, *botir* -so’zida qaytmaslik, shijoat belgilari namoyon bo’lsa, *mard* leksemasida tantilik ottenkasi bor. Bahodir leksemasida bo’lsa, qo’rqmaslik, qudratlilik ma’nolari asosiy o’rinda turadi. Shu boisdan ham, adib aytmoqchi bo’lgan fikri qaratilgan shaxsni tilga olayotganda unga nisbatan ijobiy munosabatini bildirish maqsadida *jo’mard, botir, mard, bahodir* so’zlarini qo’llagan va bu shakldosh so’zlar ijobiy –ekspressivlikni ta’nimlagan. Natijada baytda ifoda aniq, yorqin chiqqan.

Bilimdan yozilar bor **tugun, chigal**,

Bilim bil, uquv ol o’zing har mahal.

(Qutadg’u bilig. 68-bet)

Tugun, chigal sinonim soʻzlari oʻzining koʻchma maʼnolari bilan shakldoshlik hosil qilgan. Bunda *tugun* leksemasi dominant soʻz hisoblanib, “*voqea-hodisa va shu kabilarning toʻqnashgan chalkashgan yeri yoki dilda toʻplangan, koʻngilga gʻashlik solayotgan, yechilmay bosh qotiradigan narsa*” (Oʻ.T.I.L.II tom.218-bet) maʼnosini, *chigal* leksemasi esa “chalkashib, murakkablashib ketgan, chalkash” (Oʻ.T.I.L.II tom.365-bet) maʼnosini bildiradi. Koʻrinib turganidek, ushbu sinonimik qatorda **tugun** leksemasiga nisbatan **chigal** leksemasida maʼno oʻttenkasi kuchliroq va bu fikrda taʼkidlanib ifodalashga xizmat qilmoqda.

Shuning uchun kotib **dono, idrokligina** emas, xati-**xush**, soʻzi **goʻzal** boʻlsin.

(Qutadgʻu bilig. 60-bet)

Ushbu oʻrinda sifat soʻz turkumiga oid leksemalar bir sinonimik qatorni tashkil etgan. Bunda **dono** soʻzi “*aql-zakovatli, donishmand, oqil*” (Oʻ.T.I.L.I tom.234-bet) maʼnosini, **idrokli** esa “*idroki bor, tez tushunib oladigan, zehni oʻtkir, fahmli, farosatli*” (Oʻ.T.I.L. Itom.315-bet) maʼnolari bilan kontekstual sinonimiyani tashkil etgan. **Xush, goʻzal** leksemalari ham shunday munosabatga kirishgan. chunki, bu ikki leksema nutqdan tashqarida boshqa maʼnolarni anglatadi. **Xush**- “*yaxshi, maʼqul, durust*” (Oʻ.T.I.L.II tom.342-bet) maʼnosini, **goʻzal** “*husni odatdagidan ortiq, xunukning aksi*” (Oʻ.T.S.L.223-bet) maʼnosini bildiradi. Shakldosh soʻzlarning mazkur holatda kelishi taʼsirchanlikni oshirib, takrorning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Sinonimlar adibning til imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olish darajasini koʻrsatadigan birlikdir:

Sevinch-menda. Emgak menga yaqin yoʻlamaydi. **Quvonch**va
shodlikmenda. Qaygʻu-gʻamlar menga begona.

(Qutadgʻu bilig. 23-bet)

“*Xursandchilik his-tuyg’usi, shodlik, quvonch*” (O’.T.I.L. II tom. 32--bet) ma’nolarida qo’llanuvchi mavhum ot sanaluvchi **sevinch, quvonch, shodlik** leksemalari mazkur o’rinda bir sinonimik qatorni tashkil etib kelmoqda va estetik vazifa bajarib, fikrda ta’kidni ifoda etmoqda.

Sinonimlar badiiy matnlarda badiiy ruhni obrazli va aniq ifodalab, nutqiy rang-baranglikni ta’minlovchi birlikdir. Ular ham asar uslubining bo’yoqdorligini, ham mazmuning to’laligini ta’minlaydi. Bunday holatlarni “Qutadg’u bilig” da ham kuzatamiz:

Har bir tabib o’z bilganlartini aytdi. Ular ko’rmagan **da’vo, em** qolmadi. (Q b. 32-bet)

Gapda “*bemorning shifo topishi uchun qo’llaniladigan vosita, dori-darmon; umuman shifobaxsh narsa*” (O’.T.I.L. Itom. 203-bet) ma’nosini anglatuvchi **da’vo, em** so’zlarini keltirish bilan, ma’noda rang-baranglik, noziklik, ta’kid ma’nosi ta’minlangan. Bundan tashqari mazkur leksemalar fikrni kuchliroq ifodalashga xizmat qilmoqda.

Oyto’ldining **rostlik, to’g’rilik** qanday bo’ladi degan savoliga Kuntug’di shunday javob beradi:

Elig dedi: ko’rgin, to’g’rining o’zi,

Tili ham, dili ham bir bo’lar o’zi.

(Qutadg’u bilig. 26-bet)

Rostlik–“to’g’ri, adl, tik” bosh ma’nosidan o’sib chiqqan “*haqiqat, haq*” (O’.T.I.L. Itom. 627-bet) ma’nosini bildirsa, **to’g’rilik** ham shunday “tik, adil” ma’nolaridan o’sib chiqqan “*quvlik, shumlik qing’irlik va shu kabilarni bilmaydigan: halollik, vijdonlilik*” (O’.T.I.L. II tom. 260-bet) ma’nosini anglatadi. Bu ikki o’sib chiqqan semalar bir o’rinda kelib, bir sinonimik qatorni tashkil qilgan va badiiylik kasb etib, mazmundorlikni oshirishga xizmat qilgan.

Bunday misollarni Yusuf Xos Hojib asarida ko'plab uchratish mumkin. Ba'zan bir o'rinda bir necha sinonimik qator ham uchraydi:

Elig dedi:meni ko'rib ko'p dono,

Kuntug'di atadi, bu so'z purma'no.

Falakda lovullab turgan kunga boq,


Yetuklik ramzi u –***munavvar, porloq***.(Qutadg'u bilig. 25-bet)


Munavvar, porloq leksemalari *yorug'* dominanta so'zi atrofida birlashib, "***nurga ega, yorug'lik darajasi kuchli***" ligini ko'rsatib, (O'.T.S.I.L. 95-bet) bir sinonimin qatorni tashkil qilmoqda. Ushbu leksemalar o'z dominantasidan farqli ravishda poetiklikka ega va kitobiy uslubga xos so'zlar hisoblanadi. Shu sababdan ham mazkur leksemalar matnga o'ziga xos ma'no va ifoda bag'ishlayapti, o'z navbatida mazmundorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda yomonlar ham ikki toifadir. Ularning bir toifasi ***o'jar,qaysar***va ***yaramas***bo'lib, ularning qilmish –qidirmishlari tubanlikdan iborat. Bir toifasi esa ezgularga qo'shilguday bo'lsa.....***tuban*** va ***yaramas***xulq-atvordan voz kechib,ezgulikka yuz burishlari ham mumkin.

(Qutadg'u bilig. 27-bet)

"*To'g'ri yo'l-yo'riqqa,maslahatga yurmaydigan, o'zinikini to'g'ri deb turib oladigan, zid ish qilishga moyil*" (O'.T.S.I.L. 241-bet) ma'nosini anglatuvchi ***o'jar,qaysar*** ma'nodosh so'zlarida ***o'jar*** leksemasi dominant so'z hisoblanadi va o'z atrofiga quyidagi ma'nodosh so'zlarni birlashtiradi:





Bunda qiyiq, aks so'zlari o'jar so'ziga nisbatan kam qo'lanadi. Battol so'zida belgi darajasi esa kuchli. Sarkash, kajbahs so'zlari juda kam qo'llanadi.

“*Axloqi, fe'l-atvori buzuvchi*” ma'nosini anglatuvchi **yaramas** so'zi ushbu o'rinda matn ichidagina sinonimlik hosil qilib, kontekstual sinonimiyani vujudga keltirayotgan bo'lsa, yana bir o'rinda **tuban** so'zi bilan ham shakldoshlik qatorini hosil qilmoqda va fikrning ta'sirchan bo'lishini ta'minlamoqda. Bunda tuban leksemasining yaramas leksemasiga nisbatan salbiy ekspressivligi kuchliroq bo'lganligi sababli ham ifoda aniq va ta'sirli yoritilmoqda va adibdagi so'z qo'llash mahoiratining ko'zgusi bo'lib xizmat qilmoqda.

Elig **mamlakat**ni obod, **el-yurt**ni shod-xurram yashatish istagi bilan yonardi.

(Qutadg'u bilig. 20-bet)

Mamlakat, el-yurt so'zlari vatan dominanta so'zi atrofida birlashib, bir sinonimik qatorni tashkil qiladi va bunda “kishi tug'ilib o'sgan, o'zi uning fuqarosi bo'lgan joy, hudud” (O'.T.S.I.L. 74-bet) ma'nosini bildiradi. **Mamlakat** ko'proq adabiy nutqqa xos bo'lib, unda “yashash joy” ottenkasi juda kuchsiz, hatto yo'q bo'ladi. Bu so'z umuman biror xalq yoki xalqlar uchun umumiy(birlashtiruvchi) hududni bildiradi. **El** nisbatan eskirgan, hozir ko'proq poetic asarlarda uchraydi. **Yurt** ko'proq oddiy nutqqa xos va u ma'lum joy(hudud) bilan shu joyga mansub xalqni ham qo'shib ifodalay oladi. Mazkur gapda ham xalq, aholini ko'rsatgan. Bu ma'nodosh so'zlarni qo'llash bilan takrorning oldi olingan, poetiklik ta'ninlangan.

Kishidan –kishiga qoladigan meros-soʻz. Unga amal qilsang, ming-ming **foyda** va **naflar** olasan.

(Qutadgʻu bilig. 13-bet)

Foyda, **naf** leksemalari “*biror narsadan keladigan yaxshi natija, yaxshi oqibat, zara(ziyon)ning aksi*” (Oʻ.T.S.I.L. 209-bet) maʼnolarini bildiradi. **Foyda** keng tushunchaga ega va keng qoʻllaniladi. **Naf** soʻzi esa kitobiy uslubga xos leksema hisoblanadi. Ushbu soʻzlar matn tarkibida kelib, fikrni taʼkidlashga, maʼnoni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Bilim oʻylab koʻrilsa, misoli bir jilov. U barcha **yomon**, **yaramas** ishlardan tiyib turadi.

(Qutadgʻu bilig. 12-bet)

Yomon dominant soʻzini qoʻllash orqali adibfikrda taʼkidni shakllantirgan. Mazkur soʻz otlashib ham qoʻllanadi. **Yaramas** leksemasida belgi darajasi kuchli. Har ikkala soʻz “*Axloqi, feʼl-atvori buzuvchi*” maʼnosini anglatadi.

Ezgu har kuni yangidan-yangi tilak-maqсадlarga erishaveradi. Yomonlarning esa kundan-kunga **mung** va **alami** ortadi.

(Qutadgʻu bilig. 20-bet)

Alam-jismoniy azob, ogʻriq yoki ruhiy azob, qiynalish, dard-hasrat; iztirob (Oʻ.T.I.L. I tom 37-bet) manosi, **mung**- *hazinlik, mayuslik* (Oʻ.T.I.L. I tom 479-bet) maʼnolarini bildiradi va matn ichidagina sinonimlikni tashkil qilib, kontekstual sinonimiyani yuzaga keltirmoqda. Bunda mazkur oʻrinda alam soʻzidagi jismoniy ogʻriq semasi chetlashib, ruhiy azob semasi kuchaygan.

Balo, mashaqqatlar, **oʻkinch** va **alam**

Yomonlar ulushi boʻladi, bolam.

(Qutadgʻu bilig. 20-bet)

O'kinch-biror ko'ngilsiz voqea-hodisa va uni tuzatib bo'lmaslik tuyg'usi tufayli yuz beradigan g'amginlik, xafalik, afsuslanish, afsus, achinish (O'.T.I.L. II tom 501-bet) ma'nosini, **alam**-jismoniy azob, og'riq yoki ruhiy azob, qiynalish, dard-hasrat; iztirob (O'.T.I.L. I tom 37-bet) ma'nosi bilan ma'nodoshlik qatorini hosil qiladi. Natijada baytdagi ma'no kuchliroq ifodalanmoqda va ta'sirchanlik ta'minlanmoqda.

O'zi yosh edi-yu, qilig'i ravon,

Bilimli, uquvli, o'g'ir navqiron.

(Qutadg'u bilig. 21-bet)

Bilimli, uquvli- katta ilmga, ma'lumotga ega bo'lgan; o'qimishli, ilmi, bilimli (O'.T.I.L. I tom 113-bet) va aql va did bilan ish tutadigan, tez anglab, tushunib oladigan, didli, fahm-farosatli (O'.T.I.L. II tom 291-bet) so'zlari kontekstual sinonimiyani yuzaga keltirmoqda.

Bilimni **buyuk** bil, uquvni **ulug'**,

Shu ikkov ulug'lar kishini to'liq.

(Qutadg'u bilig. 21-bet)

Ulug', buyuk leksemalari bir sinonimik qatorni tashkil qiladi va bunda ular uchun katta so'zi dominanta hisoblanib "odatdagidan hajm-o'lchovi ortiq, kichikning aksi" (O'.T. S.I.L. 119-bet) ma'nosini bildiradi. Bunda katta leksemasi keng tushunchaga ega. U konkret, shuningdek, abstract tushunchalarga nisbatan ham qo'llanaveradi. Ulug', buyuk so'zlarida esa belgi darajasi kuchli. Shuning uchun ham bular deyarli hamma vaqt hajm-o'lchovi ancha katta bo'lgan narsalarga nisbatan qo'llanadi. Ulug' kam qo'llanadi. Buyuk aniq predmetlarga nisbatan kam qo'llanadi. Katta so'zi barcha uslublarda faol qo'llanadi. Mazkur bandda qo'llangan ulug' va buyuk sinonim so'zlari esa badiiy uslubda qo'llanadi va badiiy asarning o'ziga xos nozik qirralarini aks ettirishga xizmat qiladi.

Xullas, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”ida sinonimlar asarning badiiy kuchi bilan birga uning estetik kuchini oshirishga, fikrni aniq ifodalash, obrazlilikni ta’minlashga xizmat qilgan.

1.1 Asardagi omonim va antonim so'zlar vositasida adibning so'z qo'llash mahorati.

Omonim so'zlar

Tilda so'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra omonim, sinonim, antonim va paronim so'zlarga bo'linishi barchaga ma'lum. Bu esa nutqning chiroyli, ta'sirchan ifodalanishi va leksemalardagi nozik ma'no qirralarini farqlashga yordam beradi. Shakli bir xil, ma'nosi har xil so'zlar omonim so'zlardir. Shu jumladan, omonimlar ham shakli va qo'llanilish uslubi jihatdan alohida o'ringa ega so'zlardir. Omonimlarning yuzaga kelish sabablari har xildir:

1. Tilda azaldan mavjud bo'lgan ayrim so'zlarning shakllari tasodifan teng bo'lib qoladi: baqa-qurbaqa, baqa-suv tegirmoni parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qismi;
2. Bir ma'noli so'z leksik ma'noning ko'chishi oqibatida ko'p ma'noli so'zga aylanadi, keyinroq bosh ma'no va hosila ma'no o'rtasidagi bog'lanish unitilib, bir so'z negizida ikki boshqa-boshqa leksema paydo bo'ladi: *kun*-quyosh; *kun*-sutka, *kun* chiqqandan yana *kun* chiqqungacha bo'lgan vaqt;
3. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim leksemalar o'zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng bo'lib qoladi: toy(fors-tojik)-katta to'p qilib taxlab yoki bosib bog'langan mol va shu tarzidagi mol o'lchovi;
4. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng bo'lgan so'zlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi: *surat*(arabcha)-rasm, *surat*(arabcha)-urf-odat;
5. Leksemalarning yasalihi ham ba'zan omonimlarni keltirib chiqaradi: qo'noq-tariq, qo'noq(qo'n+oq)-mehmon kabi.

Shakldosh so'zlar nutqda keng qo'llanilib badiiy adabiyotda **tajnis(jinos)** san'ati va she'riy janrlardan biri- **tuyuq** ni yuzaga keltiradi. XI asrda o'zining

buyuk asarini yaratgan Yusuf Xos Hojib ham shakldosh so'zlardan samarali foydalangan:

Tili yolg'on erning jafa qilqi ul,
Jafa kimda ersa asha **yilqi ul**.
Kishi yalg'anindin tilama vafa,
Bu bir so'z sinamish o'gush **yilqi ul**.

Tili yolg'on erning jafo xulqidir,
Jafo kimda bo'lsa o'sha **yilqidur**.
Kishi yolg'onidan vafo kutmagin,
Bu so'z sinalgan talay **yilgidir**.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Birinchi baytdagi **yilqi ul** so'zi "**ot yoki otlar podasi, uyur,** " ma'nosini anglatib, (O'TIL II.269-bet), keyingi baytdagi **yilqi ul "ancha yilga oid, aytilaverib siyqasi chiqqan gap"**(O'TIL II.268-bet) ma'nosini bildirayotgan so'z bilan omonimlik munosabatini hosil qilmoqda. Bu esa adibning so'z qo'llash mahoratining boyligini ko'rsatib beruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Adib bir baytning o'zida antonimlarni mahorat bilan qo'llay olgani uning ohoriy shakldoshlik yaratganini ko'rsatadi.

Qayu erda bo'lsa o'qush birla **o'g**,
Ani er atagil necha o'gsa **o'g**.
O'qush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,
Yavuz ersa kad te, kichik ersa **o'g**.

Agar kimda bo'lsa aql, ilm, **zehn**,
Uni madh etib sen tugal er **degin**

Ziyod bo'lsa kimda uquv, aql, bilim,

Yomon va kichik bo'lsa ham uni **maqtagin**.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Mazkur omonim so'zlar misralarda ma'no jozibasini ta'minlash bilan birga ohangdorlikni yuzaga keltirishga xizmat qilmoqda. Bu esa adib mahoratining ko'zgusidir.

Eran er nqatinda o'zinko'zladi,

Tapug' qildi **yuz** yil, ani izladi.

Tapug' kezlayu qil kishi ko'rmasu,

Bu so'z mubram erdi, o'zum so'zladu.

Yagiz er yashil turku yuzka badi.

Xitay arqishi yadti Tavg'ach idi.

**

Yashil shohi bo'z yer yuzin qopladi,

Xitoy karvonin yoydi Tavg'och idi.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Mazkur o'rinlarda “**yuz** ” “*sanoq son bilan ifodalangan yoshni, umr*”ni va “**yuz**”“*Odam boshining old tomoni ko'rinishi, chehra, bet, aft*” (O'.T.I.L 463-bet) ma'nosidan o'sib chiqqan yer yuzi ma'nolarini ifodalab kelgan. Bu esa bayon etilayotgan fikrlarda ma'no nozikligini ta'minlaydi.

Balo keltiradi boshga bu **tilim**,

Boshimni u kesmay qilayin **tilim**.

(Qutadg'u bilig. 20-bet)

Boqijon To'xliyev tadbilidan keltirilgan birinchi misradagi **“tilim”** so'zi *“insonning og'iz bo'shlig'ida joylashgan...nutq tovushlarini hosil qilishda xizmat qiladigan a'zo”* semasidan o'sib chiqqan **“insonning so'zlash, gapirish qobiliyati”** (O'.T.I.L-II tom. 174-bet.) semasida qo'llangan. Bu sema esa ikkinchi misradagi *“narsalarning uzun- uzun qilib, kesib ajratilgan har bir bo'lagi, tilik”* ma'nosi bilan shakldoshlik hosil qiladi. Bunday shakldosh so'zlar mazkur tabdilda juda ko'plab uchraydi:

Mumtoz she'riyatda eng ko'p qo'llaniladigan omonim so'zlardan biri bu **“ot”** leksemdir.

O'zing mangu emas oting mangu dir,

Oting qolar bo'lsa, mahgulik shudir. (Qutadg'u bilig.14-bet)

Va

Shu o'ylar bilan Oyto'ldi **otini** mindi.... (Qutadg'u bilig.21-bet)

Shakldosh bo'lib kelgan dastlabki gapdagi **“ot”** *“kishining shaxsiy ismi, nom”* ni va keyingi jumladagi **“ot”** esa *“yakka tuyoqlilarga mansub yirik ish-ulov hayvoni”* ni bildirib kelmoqda.

Oyto'ldining yakka-yu yagona farzandi bo'lib, uning ismi O'gdulmish edi. O'gdulmish bu paytda juda ham **yosh** edi. U o'g'lini yoniga chaqirib, ko'zlaridan duv-duv **yosh** to'kdi.

(Qutadg'u bilig. 84-bet)

Yosh leksemasi ot so'z turkumiga oid omonim so'z bo'lib, mazkur o'rinlarda *“qattiq o'g'riq, qayg'u yoki kuchli sevinch-shodlik va shu kabilar natijasida ko'z bezlaridan ajralib chiqadigan tiniq suyuqlik”* va *“tug'ilgan yillaridan boshlab yashab o'tkazilgan yillar jami, umr uzoqligi”*(O'.T.I.L I tom. 264-bet) ma'nolarini bildiradi. Ushbu o'rinlarda adib shakldosh so'zlarni qo'llash bilan ma'noda noziklikni ta'minlagan va leksemalardagi shakl go'zalligiga ham e'tibor bergan.

Xizmatiga qarab xazinangni **och**,

Yupunlar kiyinsin, to'yib olsin **och**.

(Qutadg'u bilig. 63-bet)

Dastlabki misaradagi **och** shakldosh-omonim so'zi fe'l so'z turkumiga tegishli bo'lib, *“o'ralgan, qoplangan, panalangan yoki ko'milgan narsalarni bekitib, o'rab, qoplab turgan narsalardan, olish-qo'yish yo'lini og'zini bekitib turgan tiqin, qopqoq, qulf va shu kabilarni surib qo'ymoq yoki olib tashlamoq”*(O'.T.I.L I tom553-bet) ma'nosini anglatga keyingi misradagi **och** leksemasi esa *“qornida, medasida ovqat qolmagan, ochiqib ovqat tusab qolgan, ochiqqan”* (O'.T.I.L I tom. 551-bet)ma'nosini bildiradi. Bu shakldoshlar baytda mazmundorlikni oshiruvchi vosita bo'lib, adibning so'z qo'llash mahoratini namoyon etib kelmoqda.

Bo'z yerning yuzini misday qizil qil,

Yam-yashi **o't** o'ssin ham qirmizi gul.

(Qutadg'u bilig. 145-bet)

va

Uchi **o't**, uchi suv, uchasi havo,

Uchi xok; shulardan paydo bu ma'vo.

(Qutadg'u bilig. 146-bet)

O't leksemasi asli shakldosh so'z sifatida uch xil ma'no anglatadi. Mazkur baytlarda esa o't so'zining ikki xil ma'nosi yoritilgan. Shulardan dastlabki baytdagi **o't** leksemasi ot so'z turkumiga kiruvchi so'z bo'lib, *“poyasi yog'ochlashmaydigan, chorva mollari uchun asosiy yemish bo'ladigan yashil o'simlik; alaf”* (O'.T.I.L II tom 517-bet) ni, ikkinchi baytdagi **o't** leksemasi ham o't so'z turkumiga tegishli so'z bo'lib, *“yonish jarayoni; olov, otash”* (O'.T.I.L II tom 516-bet) ni ko'rsatib kelmoqda.

Uch bahor yulduzi, uchtasi **yozgi**,

Uchi kuz, qishki ham shuncha deb **yozgin**.

(Qutadg'u bilig. 146-bet)

Ushbu baytdagi **yoz** so'zining dastlabkisi, "*yilning bahor bilan kuz o'rtasidagi eng issiq fasli*" (O'.T.I.L I tom 253-bet) ma'nosini bildirib kelayotgan ot so'z turkumiga tegishli so'z hisoblanadi. Ikkinchi misradagi **yoz** leksemasi esa fe'lining buyruq –istak maylida turgan so'z bo'lib, "*qog'oz yoki boshqa material yuziga biror belgi (harf, raqam va shu kabilar) tushirmoq, bitmoq*" (O'.T.I.L I tom 254-bet) ma'nosini anglatmoqda va baytda ma'no jozibadorligini ta'minlovchi vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Shakldosh so'zlarning yana bir ko'rinishi bu- omoformalardir.

Shakli va talaffuzi bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan grammatik shakllarga **omoforma** deyiladi.¹

Omonim va omoformalar til va nutqda o'ziga xos uslubiy vositalar rolini bajaradi: misralarni qofiyalash, tuyuq va askiya janrlariga xos so'z o'yinini (tajnisni) ta'minlaydi, shu asosda badiiy asarga husn bag'ishlaydi.² Masalan:

Erkim so'z vahjidan taxtga **egadir**,

So'z kim, er boshini pastga **egadir**.

Misrada qo'llangan birinchi egadir so'zi-**ega/fel/dir**- kesimlik qo'shimchasi bo'lib bo'lmoq ko'makchi fe'li o'rnida qo'llangan ("qo'lidagi, ixtiyoridagi, izmidagi narsaga ega bo'luvchi; xo'jayin, sohib") (O'TIL.II.437-bet) shaklidan, ikkinchi qo'llangan **egadir**(**eg** (fe'l)+ **adife**llardagi shaxs-son qo'shimchalarining III shaxsi qo'shimchasi **r**/qofiyani shakllantiruvchi tovush(*ko'chma* "qaddini bukmoq, bukchaytirmoq") (O'TIL.II.438-bet) dan iborat. Ushbu leksemalar baytda keltirilishi natijasida ohangdoshlikni yuzaga keltirib, ma'nodagi noziklikni

¹Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro: 2009. 79-bet.

²Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: "To'lqin", 2005. 180-bet.

ta'minlamoqda va adibning so'z qo'llash ma'horatini yana bir bor namoyon etmoqda.

Aytish mumkinki, Yusuf Xos Hojib omonimlarni mahorat bilan qo'llay olgan, omonim qo'llash talabini ham yuksak darajada uddalagan. Bu esa uning asarini boyitib, mazmundorligini oshirib, asar leksikasidagi ma'no rang-barangligini ta'minlab kelmoqda.

Antonimlik hodisasi.

Til birliklarining o'zaro zid munosabatdagi ma'nolarni anglatishi asosida guruhlanishiga **antonimiya** deyiladi. Antonim yunoncha so'z bo'lib, anti - zid, qarshi; onyma - ism degan ma'noni anglatadi.

Antonimiya ikki til birligi orasidagi munosabatga asoslanadi. Bulardan biri ikkinchisiga nisbatsan antonim bo'lib, ikkisi birlikda antonimik juftni hosil etadi. Avvalo, ikki xil antonimiyani ko'rsatish lozim:

1. Lug'aviy antonimiya – lug'aviy birliklarining o'zaro antonim bo'lishi: saxiy-baxil;

2. Grammatik antonimiya – grammatik birliklarning o'zaro antonim bo'lishi: o'rinli-o'rinsiz.

Lug'aviy antonimiya uch xil bo'ladi:

1. Leksik antonimiya - leksemalarning o'zaro antonim bo'lishi: ertalab-kechqurun;
2. Frazelogik antonimiya – frazemalarning o'zaro antonim bo'lishi: oq ko'ngil-ichi qora;

3. Leksik- frazeologik antonimiya – leksema bilan frazemaning o`zaro antonim bo`lishi: xafa-boshi osmonda.²⁴

Antonim juftlik – o`zaro qarama-qarshi ma`noli ikki so`z.

Enantiosemiya bitta leksema ma`nosida nutqiy muhit talabiga ko`ra zidlanishning ifodalanishi , chunonchi , ofat so`zining ma`nosi “falokat, balo”dir, ammo u “Ulug` yo`l” romanida bir epizodda shu ma`noga zid ravishda “go`zal, maftunkor ” ma`nolarini anglatgan.

Ikki ma`no o`rtasidagi oraliq tushuncha mantiqiy markaz va shu markazning ikki tomonidan o`rin olgan tushunchalar o`zaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Ba`zan mantiqiy markazning ikki tomonida bir nechtdan antonim juftlik bo`ladi:

Bunday hollarda o`z ma`nosiga ko`ra mantiqiy markazdan teng uzoqlikda joylashadigan so`zlar o`zaro antonim juftlik hosil qiladi.²⁵

Antonimlar tub (oz-ko`p), yasama (unumli-unumsiz) bo`ladi. Badiiy asarlarda , xalq maqollarida antonimlar emotsional-ekspressiv uslubiy vositalar sifatida nutqning ifodaliligi, ixchamligi, o`tkirliги uchun xizmat qiladi.²⁶

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:

a)kontrar qarama-qarshilik;

b)komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqlarning ziddiyat, ya`ni qarama-qarshilikka o`sib borishi natijasida birinchi a`zo bilan oxirgi a`zoning antonimlashuvi. Masalan, kichik – o`rta – katta , yosh – o`smir – o`rta yosh – qari kabi. Bunda kichik va katta , yosh va qari lekse-malari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a`zolari o`rtasida ikki antonim

²⁴Tursunov U , .Muxtorov J,Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili.Toshkent:1992.120-bet

²⁵Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili.Toshkent: “To`lqin”, 2005. 170-176-bet.

²⁶Qilichev E.Hozirgi o`zbek adabiy tili . Buxoro:2009.73-74-betlar.

a`zo belgilarini o`zida mujassamlashtirgan bog`lovchi bo`g`in. Yuqoridagi o`rta leksemasida kichik va katta leksemalarining qarama-qarshiligi so`nadi. Demak, leksemalarining kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozim.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bog`insiz bo`ladi: rost –yolg`on, arzon – qimmat, oson – qiyin. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema yo`q.

Antonimiyada uch xil belgi bor:

- 1) shakliy (fonetik strukturasi) jihatdan har xillar;
- 2) ma`no jihatdan har xillar;
- 3)ma`nodagi o`zaro zidlik.²⁷

Ma`no jihatidan antonimlar o`zaro bog`lanishli bo`ladi: birini aytis bilan shuning zidi ko`z oldiga keladi, birining ma`nosi uning antonimiga ko`ra aniq gavdalanadi; go`yo antonimlar biri ikkinchisini turtib turgandek bo`ladi.

Kontekstual antonimiya – o`zaro zid ma`no ifoda etmagan leksemalarning ma`lum kontekst ichida so`zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritishidir. Bunday holatlar ko`p hollarda she`riy misralarda uchraydi.

Dunyo yaralibdiki, bir-biriga zid tushunchalar va narsalar mavjud. Doimo biri ikkinchisi bilan raqobatdadir. Ana shu zid tushunchalar bizga hamisha yaxshi va yomonni farqlashga yordam beradi. Aytayotganimiz zidlik leksemalar ma`nosi o`rtasida ham kuzatiladi va bu ma`no zidligi hodisasi **antonimlik** deyiladi. Antonimlik esa badiiy adabiyotda **tazods**an`atini yuzaga keltiradi. O`zining noyob asari bilan nom qoldirgan. Y.X.Hojib ham “Qutadg`u bilig`”ni yaratish va uni bayon qilishda antonim so`zlardan juda keng va samarali foydalangan. Buni asarni

²⁷Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili .Toshkent:2009.114-bet.

yoki uning tabdilini o'qiganda ham bilish mumkin. Boqijon To'xliyev tabdilidagi leksemalarni ham quyida keltirib o'tishga harakat qilamiz.

Bu et, o'zka berma tilak-arzusin,

Tilak bersa tetur idisi bashin.

Mungar **edgu** qilsa, bu **esiz** qilur,

Esiz qilsa bo'ynin egar erksizin.

Havo-nafsga berma tilak –arzusin,

Tilak topsa er u egasi boshin.

Unga **yaxshilik**dan **yomonlik** qo'par

Bu shardan egar nafs egasi bo'yin.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Tirik oxir o'lar qora yer quchib,

Nom ezgu esa-chi, ketarmi o'chib?!

Ikki xil nom qolar tilda begumon,

Biri **yaxshiligu** birisi **yomon**.

Dono maqto'v olar, **nodon**-chi so'kish,

O'zing o'yla, senga ma'qul qaysi ish?!

(“Qutadg'u bilig” 15-bet)

Ushbu bandlardada **yaxshilik**va **yomonlik**, **dono** va **nodon** antonimlari qo'llangan. Bu so'zlar ko'p ma'noli so'z bo'lib, yaxshi va yomon so'zlarining bosh ma'nolari quyidagilar: **yaxshilik** “ijobiy sifat va xususiyatlarga,xulq-atvorga egalik, (O”TIL.V.125-bet) ma'nosini va**yomonlik** “yomon, salbiy sifat va

xususiyatlarga ega bo'lishlik, qabihlik, yovuzlik”(O’TIL.II.36-bet) Ushbu parchada adib insonga, kitobxoniga murojaat etib, **yaxshilik** soʻzining “*ijobiy sifatlarga ega bo'lish*” maʼnosi bilan **yomonlik**soʻzining “*salbiy sifat va xususiyatlarga ega boʻlish*” maʼnosidagi zid semalarini aytmoqda. Yana **dono** soʻzi “*aql-zakovatli, donishmand, oqil*” (O’TIL Itom.234-bet) maʼnosini, **nodon** fors-tojikcha soʻz boʻlib, “*ilm-maʼrifatdan xabari yoʻq,ongi, tushunchasi past, qoloq*” (O’.T.I.L.I tom.506-bet) maʼnosini bildiradi. Ushbu oʻrinda shoir koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼno qirralarini ochish barobarinda antonimlarning ham gʻoʻzal naʼmunasini yaratgan. Antonimlari ijodkor fikrini izohlashda dalil va izoh sifatida qoʻllangan.

Tirik beg kishika kerak edgu yang,

Kerak bo'lsa bulg'ay qamug' edgu nang.

Esizka nekulug kerak mal, tavar,

Necha kirsar bo'lg'ay **chig'ay** birla **teng**.

Tirik beg kishi-gun goʻzal xulq-chiroy,

Kerak bo'lsa davlat, topar u kiroy.

Tubanga tovar -mol,kerakmi? Nega?

U bo'lsanecha **boy** tengidur **gadoy**.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ushbu baddagi **gadoy,boy** leksemalari leksik antonimlik munosabatini hosil qilgan. Bunda **boy**- soʻzi koʻchma maʼnoda qoʻllangan boʻlib,asli “*iqtisodiy jihatdan mustahkam, hech narsadan kamchiligi, muhtojligi yoʻq, hamma narsadan badastir, toʻkis, badavlat*”(O’TIL.I.126-bet) maʼnosini bildiradi. Asl maʼnodagi toʻkislik, badastirlik semasi **gadoy** soʻzining “*tilanchilik bilan kun kechiradigan*

tilanchi” (O’TIL.I.182-bet)ma’nosi bilan o’zaro munosabatga kirishgan va ma’no rang-barangligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Kontekstual antonimiya – o’zaro zid ma’no ifoda etmagan leksemalarning ma’lum kontekst ichida so’zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritishidir. Bunday holatlar ko’p hollarda she’riy misralarda uchraydi.shu jumladan, “Qutadg’u bilig” asarida ham:

Qul arslan bo’lu bersa otqa bashi,
Bu **it** barcha **arslan** bo’lur o’z tushi.
Qali bo’lsa arslanqa it bashchisi,
Bu arslan bo’lur barcha it saqishi.

Gar **it**larga **arslon** bo’larkan boshi,
Bu itlar bo’ladi u arslon tushi,
Gar arslon to’dasiga it bo’lsa bosh,
Bu arslonlar itning bo’lar tengdoshi.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Mazkur bandda matn ichidagina antonim bo’lib keluvchi leksemalardan **it** so’zi –“*uy-ro’zg’orni qo’riqlash, ov ovlash va shu kabi maqsadlar uchun saqlanadigan to’rt oyoqli sut emizuvchi uy hayvoni*”(O’TIL.II. 240-bet),**arslon** esa “*mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon;she’r*”(O’TIL.II. 240-bet) ma’nosini bildiradi. Bu leksemalar leksik antonimiya bo’lmasada, ulardagi semalar: “it” lesemasidagi “uy havvoni”semasi bilan arslon leksemasidagi “yovvoyilik,yirtqichlik” semasi o’zaro antonimlikni vujudga keltirmoqda.

Qilinch qari o’g’lan uzluk uqush,

Uqush qayda bo'lsa, angar bar,yapush.

Kichigi sevuglug,**qarisi** amul.

O'zi tuzun,alchaq,ko'r,asg'i ogush.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Kichik-“*hajmi-o'lchami nisbatan katta bo'lmagan*”(O'TIL.I.389-bet.) ma'nosi bilan qari so'zining “*ancha yoshga borgan, qartaygan,keksa*”(O'TIL.II.555-bet.)ma'nosi faqat baddagina antonimlikni bildirib, kontekstual antonimlikni hosil qilgan.

Ajunda alindim o'zumka o'ngi,

Qo'vuq, so'kni em gap, to'nim **qo'y** yungi.

Shakardan tatig'liq, qo'viq bo'z manga,

Jo'z ul bu o'zim to'n **ag'ilar** tengi.

Jahonda ro'zimni yedim har kungi

Qipiq, so'k-yemishim, to'nim **qo'y** yungi.

Shakardan shirinroq qipiqdir menga,

Menga **bo'z** liboslar **ipak**lar tengi.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ushbu banddagi **Jo'z-bo'z**, **ag'i- ipak** leksemalari ham matn tashqarida antonim so'zlar bo'lolmaydi. Chunki,*jo'z-bo'z* arabcha so'z bo'lib, “*qo'l dastgohida paxta ipidan to'qilgan mato*” (O'TIL.I.157-bet)ni bildirsa, ipak leksemasi “*pilla qurti chiqargan juda ingichka pishiq tola va undan yigirilgan ip*”(O'TIL.I.333-bet) ma'nosini anglatadi. Mazkur so'zlar o'zaro zid ma'noli bo'lmasada, misrada ularning “silliqlik” va “qattiqlik” semalari o'zaro antonimlikni yuzaga keltirishga xizmat qiluvchi vositadir.

Bunday misollarni Boqijon To'xliyev tabdilida ham uchratish mumkin:

Hatto **chivin** ham **fil** uchun arzimas dushman emas.

Ushbu o‘rindagi (**chivin –fil**) so‘zlarida o‘zaro antonimlik holati kuzatilmasada, ammo mant ichida antonimlikni yuzaga keltira olgan. **Chivin**- “*ikki qanotli, uzun mo‘ylovli, qon so‘ruvchi hasharot*” (O‘TIL.I.350-bet), **fil**- “*Afrika va Osiyoda yashaydigan sutemizuvchilar sinfiga mansub katta hayvon* ” (O‘TIL.II.301-bet) ma‘nosini bildiradi. Ushbu leksemalardagi hajm semasi o‘zaro antonimlikni yuzaga keltirgan.

Qamug‘ ga‘yib o‘zlar ko‘rushsa o‘zun.

Saqinch bo‘ldi qisg‘a, **sevinch**lar uzun.

Na ko‘rkli bo‘lur ko‘r, kishi adrilib,

Salamat qavushsa eki o‘z o‘zun.

Ko‘rkli bo‘lar, ko‘r kishi ayrilib,

Judolar ko'rishsa topib bir-birin,
Alam qisqa bo'lg'ay, sevinchlar uzun.
Salomat topolsa yoru do'stlarin.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Mazkur banddagi antonimlar(**alam** – **sevinch**) o'zaro zid ma'no ifoda etma-gan leksemalar bo'lib, shu kontekst ichida muallif tomonidan antonimik munosabatiga kiritirilgan. *Alam* “*jismoniy qiynoq; azob; qiynoq*” (O'TIL.I.66-bet) ma'nosini bildirib, bu leksemada “*jismoniy azob*”, “*qiynoq*” semalari bor. *Sevinch* “*shod-xurram; xursandlik, sevinch, quvonch*” ma'nosini bildirib, sevinch leksemasida “*quvonish*”, “*mamnunlik*” (“*tuyg'u*”) semalari mavjud. **Alam** leksemasidagi “*azob*” (*qiynoq*) semasi, **sevinch** leksemasidagi “*mamnunlik*” (*quvonch*) semasi zidlikni hosil qilgan. Ijodkorning bu o'rindagi so'z qo'llash mahorati ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi

Tili yolg'on erning **jafa** qilqi ul,
Jafa kimda ersa asha yilqi ul.
Kishi yalg'anindin tilama **vafa**,
Bu bir so'z sinamish o'gush yilqi ul.

Tili yolg'on erning **jafo** xulqidir,
Jafo kimda bo'lsa osha yilqidur.
Kishi yolg'onidan **vafo** kutmagin,
Bu so'z sinalgan talay yilgidir.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Vafo-“*yorga, do'stga, yaqin kishilarga sadoqat; o'z ahd-paymonini muqaddas tutish, so'zda, va'dada qat'iy turish*,” (O'til.I.174-bet) ma'nosini, jafo so'zi esa “*ma'naviy, ruhiy va jismoniy ezilish, azob uqubat kulfat*” (O'til.I.275-bet) ma'nolarini bildirib leksik antonimlik munosabatiga kirishmoqda.

Biligsizka davlat yarashsa kelib,

Biliglikka artuk yarashur tegib.

Biligsiz bila tursa davlat qali,

Biliglig bila turg'a teng-tush ko'rib.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Biligsiz-bilimsiz, biliglik-bilimli leksemalari ham leksik antonimlikni yuzaga keltirmoqda. Bunda **bilimsiz**so'zi- "*bilimi, ilmi, ma'lumoti yo'q, o'qimagan, ilmsiz, nodon*" (O'TIL.I.113-bet) ma'nosini, **bilimli** esa "*katta ilmga, ma'lumotga ega bo'lgan, o'qimishli, ilmi, bilimli*" (O'TIL.I. 113-bet) ma'nosini bildiradi.

O'gush su tilama, er **o'rdum** tila,

Er o'rdum tila ham to'lum tum tila.

Etiglik az edgu o'tushtan ko'ru,

Telim tushti artaq o'gush su bila.

Talaylashkar ermas, sara, **oz** tila,

Sara, oz tila ham saloh soz tila.

Sifatli oz afzal talaydan ko'ra,

Talay lashkar ichra xatolar to'la.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

O'gush-talay so'zi- "*ancha, ko'p, ko'pgina*" (O'TIL.II.111-bet) ma'nosini bildirib **o'rdum**-oz leksemasining "*son yoki miqdor jihatdan uncha ko'p bo'lmagan, kam*" (O'TIL.I.525-bet) ma'nosidagi "*hajm*" semasi o'zaro antonim juftlikni yuzaga keltirmoqda. Bu esa misrada ohangdorlikni ta'minlash bilan birga fikrning aniqliligini, tiniqliligini taminlashga xizmat qilmoqda.

Bo'sh, **azad** kishi barcha edgu **quli**,

San edgu qilu ko'nilik yo'li.

Kishilik qilurqa kishi bo'l tushi,

Kishi mundag' urdi kishilik uli.

Hamma **ozod** insonlar ezguga **qul**,

Qilib ezgu ish, och adolatga yo'l.

Odamgarchilik qil hamisha o'zing,

Kishilik haqi shu, adolatli bo'l.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Azad, qul leksemali bir misraning o'zida kelib ma'no jozibadorligini taminlamoqda. Bunda **ozod** leksemasi- "*o'z erki, haq-huquqi o'z qo'lida bo'lgan, erkin, hur*" (O'TIL.I.525-bet) ma'nosini anglatadi. **Qul** leksemasi esa "*xususiy mulk, mol qatori olib-sotilgan, bus-butun xo'jayinga qaram bo'lgan, hech qanday haq-huquq va mol-mulkka ega bo'lmagan xizmatkor*" (O'TIL.II.615-bet) ma'nosiga ega. Bu ikki qarama-qarshi ma'noli leksema mazmundorlikni oshirish bilan birga kitobxonni o'ylashga, kengroq va chuqurroq fikrlashga chorlaydi.

Achig'li, to'dug'liqa qilma tapug',

Nekuka qilursan tapug'qa yapug.

Tapin bir bayatqa tushi tinmadin,

Bu **tun, kunduzun** bo'l achuqlug' qapug'

Och-u to'q kishiga yumush qilmagin,

Yumush-la o'zingni uruntirmagin.

Topin bir xudoga sira tinmayin,

Tun-u kun eshiging yopiq tutmagin.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Achig'li-Och, to'dug'li-to'q ,tun,kunduzun –kunso'zlari o'zaro zid ma'noga ega bo'lib leksik antonimiyani tashkil qilmoqda.

Bunda **achig'li-och**so'zi "*qornida,medasida ovqat qolmagan ochiqib, ovqat tusab qolgan,ochiqqan* " (O'TIL.III.162-bet) ma'nosini, **to'dug'li-to'q** so'zi esa "*ovqatga bo'lgan talabini qondirib, to'yib ovqatlangan, ovqat yeb olgan*"(O'TIL.II.257-bet) ma'nosini anglatadi. So'nggi misradagi tun, kun leksemalari ham o'zaro zidlanib, **tun** so'zi "*sutkaning kun botishdan kun chiqqungacha,oqshomdan tong otargacha bo'lgan qismi* " (O'TIL.II.223-bet)ni, **kun** so'zi "*sutkaning quyosh chiqishidan quyosh botguncha bo'lgan qismi*"(O'TIL.I.405-bet)

Qamug' igka o't ul, emi belgulug,

Ul **ig** emlaguvchi qami belgulug.

Ko'ngul arzu birla qali iglasa,

Tilab bulsa **o'nglur** igi belgulug.

Hamma dard uchun dori –darmonbo'lar,

Bu dardni davolovchi luqmon bo'lar.

Ko'ngil orzu **dard**diga bo'lsa duchor,

Davo-orzu dilga eta ron bo'lar.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ig-dard“og’riq, kasallik” (O’TIL.I.211-bet) ma’nosini,**o’nglur–davo** esa “bemorning shifo topishi uchun qo’llaniladigan vosita, dori-darmon, umuman shifobaxsh narsa”(O’TIL.I.203-bet) ma’nosini bildiradi.

Leksik antonimiya “Qutadg’u bilig”da samarali qo’llangan. Bu Boqijon To’xliyev tabdilida ham o’z aksini topgan:

Ko’ngil nozikligi bu so’zga nishon,

U **issiq-sovuqqa** bog’liq har qachon.

(“Qutadg’u bilig” 74-bet.)

Mazkur baytdagi *issiq- sovuq* antonim juftligini hosil qilish bilan adib “hayotning og’ir –yengil, yaxshi yomon kunlari, ikir-chikir tashvishlari,har xil sharoitlari” (O’.T.I.L I tom 337-bet) semasini anglatmoqda va baytdagi ta’sirchanlikni oshirmoqda. Bu esa kitobxonni o’ylashga, kengroq mushohada qilishga undaydi.

Bunday antonim juftliklar ijodkor tilida juda ko’plab uchraydi:

Tug’ilgan odamdan qoladigan meros-so’z. Uning o’zi ***o’lib ketadi***, so’zi ***mangu qoladi***.

(“Qutadg’u bilig” 15-bet)

O’lib ketadi so’zining “*hayoti tugamoq, yashashdan to’xtamoq,qazo qilmoq*” (O’TIL. I tom. 504-bet) ma’nosi bilan ***mangu qoladi*** leksemasining “*abadiy,umrbod yashamoq*” (O’TIL. II tom. 594-bet) ma’nosi bir gapda qo’llanilib, o’zaro antonimlik munosabatini hosil qilmoqda. Mazkur so’zlar badiiy uslubga xos leksemalar bo’lganligi sababli matnga o’zgacha estetik ma’no kiritishga xizmat qilmoqda. Bunda ***o’lib ketmoq*** leksemasida salbiy bo’yoqdorlik ottenkasi bo’lsa, bu leksemadan farqli o’laroq ***mangu qolmoq*** leksemasida ijobiy ekspressivlik ottenkasi kuchliroq. Shu boisdan ham kichik gap aniq va kuchli ma’no kasb etgan.

Dono maqtov olar, **nodon**-chi **so'kish**,

O'zing o'yla, senga ma'qul, qaysi ish?!

(“Qutadg‘u bilig” 15-bet)

Maqtov- “*maqtab aytilgan yoki yozilgan so‘z, gap*”(O‘TIL Itom.457-bet), **so'kish** esa “*yomon so‘zlar bilan urishmoq, haqorat qilmoq*” (O‘TIL Iltom.96-bet)dir. Mazkur leksemalar bir gapning o‘zida kelib, ma’nosini yaqqol ochib berishga xizmat qilmoqda va bu qarama-qarshi tushunchalar orqali chuqurroq, kengroq fikr yuritishga undaydi.

Donishmandlar kuzatishi shunday hikmatni yuzaga keltirgan:odam qahrlansa bilimsiz bo‘ladi, **jahl** kelsa **aql** ketadi...

(“Qutadg‘u bilig” 22-bet)

Jahl–“*nojo‘ya hatti-harakatdan, gapdan yoki voqea-hodisadan ranjish, achchiqlanish, g‘azablanish tuyg‘usi;achchiq, g‘azab*. “(O‘TIL.I.275-bet) ma’nosini bildirib, aql so‘zi bilan leksik antonimlikni yuzaga keltirmoqda. **Aql** leksemasi esa “*odamning bilish, fikr yuritish qobiliyati; zakovat darajasi;es-hush*” (O‘TIL.I.67-bet) semalarini anglatadi.

Leksik antonimiya og‘zaki nutqda ham, yozma nutqda ham juda ko‘p qo‘llanadigan hodisadir. Buni “Qutadg‘u bilig” asari misolida ham ko‘rish mumkin:

Og‘izdan goho **o‘t**, goho **suv** chiqar.

Yashnatar birisi, birisi **yiqa**r.

(“Qutadg‘u bilig” 60-bet)

(**O‘t-suv**)(**Yashnatar-yiqa**r) so‘zlari asli antonym so‘zlar emas. Sababi, ushbu so‘zlar nutqdan tashqarida o‘zaro antonimlikni hosil qilmaydi Mazkur o‘rindaesa bu so‘zlar ijodkor talabiga ko‘ra antonimlik munosabatiga kirishtirilgan va

kontekstual antonimiyani hosil qilgan.. Chunki, o't leksemasi "*otash, olov*"(O'TIL.II.517-bet)ni, suv esa "*vodorod va kislorodning kimyoviy birikmasidan tashkil topgan tuzsiz, shaffof suyuqlik*"(O'TIL.II.79-bet) ma'nosini bildiradi.**Yashnatar**- "*barq urib o'smoq, gullamoq, guli ochilmoq; (ko'chma) yayramoq, o'zini baxtiyor his etmoq*" (O'TIL.II.491-bet)ma'nosini, **yiqar**- "*kuch bilan qulatmoq, ag'darmoq*"(O'TIL.I.350-bet) ma'nosini bildiradi. Bu leksemalardagi *o'zini baxtiyor his etmoq* semasi bilan*qulatmoq* semasi o'zaro antonimlikni yuzaga keltirgan. Bu adibning so'zdan o'rinli foydalanish mahoratining yana bir qirrasidan dalolat beradi.

Kontekstual antonimlar hosil qilishning asosiy sababi leksemalardagi zid semalardir. Har qanday so'z ham matnda kontekstda antonim bo'la olmaydi. Leksik antonimiyada bo'lgani kabi kontekstual antonimlarda ham bir-biriga zid semalar bo'lishi shart.

Shirin so'zga hamma-**katta** ham, **kichik** ham eriydi.

(“Qutadg‘u bilig” 60-bet)

Katta,kichik- leksemasi leksik antonimlikni yuzaga keltirib, yosh jihatdan o'zaro zidlikni ko'rsatmoqda. Bunda **katta** – "*yosh jihatdan ulug', yoshi ortiq*" (O'TIL.I.372-bet) **kichik**- "*yosh jihatdan yosh*" (O'TIL.I.389-bet) ma'nolarini ko'rsatadi.

Ne-ne erlar o'tdi, hokimi davron,

Biri dono edi, birovi-mergan.

Botirlar bor edi ko'ksini kergan,

Birov **oz** yashadi, birovi **uzoq**.

(“Qutadg‘u bilig” 134-bet)

Oz- "*son yoki miqdor jihatdan uncha ko'p bo'lmagan, kam*" (O'TIL.I 525-bet), **uzoq**- "*biror kimsa yoki narsadan katta masofa bilan ajralib turadigan, undan ko'p*

naridagi; yiroq, olis; davomli;” (O’TIL.II 267-bet)ma’nolarini bildiradi. Ko’rinib turganidek mazkur so’zlar nutqdan tashqari holatlarda zidlikni hosil qilmaydi. Ammo adib bu so’zlarni ularning “kamlik va davomlilik” semalari bilan o’zaro antonimlikka kirishtirgan. Bu esa ma’nodagi jozibani ta’minlovchi vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, lirik asar insonga zavq beradi, ruhiyatini tetiklashtiradi, kitobxonda unga nisbatan qiziqish uyg’otadi. “Qutadg’u bilig”ning tarixiy asar ekanligi esa bu qiziqishni yanada kuchaytiradi. Adib qo’llagan zid ma’noli so’zlar bo’lsa tarixiy asarning til xususiyati naqadar boyligi va adib mahoratini namoyon qilib, dunyoqarashimiz yanada kengroq shakllanishida juda katta ahamiyat kasb etadi.

III BOB. “Qutadg’u bilig” asarida ko’p ma’noli so’zlar va ularning semantik xususiyatlari.

2.1. Metafora yo’li bilan ma’no ko’chishi

Tilshunoslikda ko’p ma’noli so’zlar masalasida, xususan, leksikologiya va semasiologiya fanlariga alohida e’tibor qaratilgan. So’zlarda ko’chma ma’noning paydo bo’lishi, ya’ni polisemiya holatining yuzaga kelishi va ularni qo’llash jarayonida omonimlarning ajralib chiqishiga ko’p ma’noli so’zlarni o’rganishdagi asosiy muammolar sifatida yondashilmoqda. Ayri tadqiqotchilarning fikriga qaraganda leksik tizimdagi otlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- Tuzilishiga ko’ra: sodda, murakkab;
- Shakl va ma’no munosabatiga ko’ra: ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli; Qo’llanilishiga ko’ra : faol va nofaol
- Vazifaviy-uslubiy xususiyatiga ko’ra: kitobiy, rasmiy, so’zlashuv;
- Lug’at tarkibidagi qatlamiga ko’ra: o’z va o’zlashgan, chegaralangan va chegaralanmagan qatlamlar;
- Emotsional-ekspressiv bo’yoqdor jihatiga ko’ra: emotsional –ekspressiv bo’yoqdor, emotsional –ekspressiv bo’yoqsiz so’zlar;
- So’zlarning ifodalaydigan umumiy kategorial ma’nosiga ko’ra.²⁸

Bundan ko’rinib turibdiki, leksemalar har tomonlama o’rganiladi. Sulardan dastlab, ko’o ma’noli so’zlar haqida so’z yuritsak.

Leksik polisemiya (yunoncha: poli-“ko’p”, semia-“belgi”)leksemalarning bir necha ma’noga ega bo’lishi.²⁹

Hozirgi o’zbek adabiy tilidagi leksemalarning deyarli yarmi bir ma’noli, yangi yaratilgan leksema . Boshlang’ich ishlatilish davrida bir ma’noli bo’ladi, biror voqelikning nomi sifatida yuzaga kelib, keyinchalik unda mazmun jihatdan turli-tuman o’zgarishlar yuz beradi, shunday o’zgarishlarning ma’lum bir qismi natijasida bir ma’noli leksemaga aylanadi. Biz xuddi shu holatlarni XI asr

²⁸Aliqulov Abduhakim. Leksemalar tasnifiga doir.”Til va adabiyot ta’limi” jurnali.2005. 2- son.46-47-betlar.

²⁹Jamolxonov H. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent:”To’lqin”.2005.155-bet.

na'munasi bo'lgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari misolida ham ko'rib chiqamiz.

Leksemaning ma'nolari asli kontekstda shakllanadi va namoyon b'ladi: konteks qanchalik rang-barang bo'lsa u leksemalarning ma'nolari shunchalik ko'p bo'ladi. Bunda shu leksema bilan bog'lanib keladigan leksemalarning miqdori emas, balki turli-tuman semantic yo'nalishdagi leksemalar bo'lishi mumkin.

Leksik ko'p ma'nolilik-ko'p qirrali, murakkab hodisa. Buning ustiga deyarli har bir leksemaning leksik ma'no taraqqiyoti alohida-alohida yondashishni, izohlashni talab qiladi. Shu sababli leksemalarning leksik ma'nolarini aniqlash vatartiblash juda qiyin. Adabiyotlarda leksemalarning ko'p ma'noliligi haqida berilgan fikrlar o'ta mavhum bo'lib, leksik ma'no taraqqiyoti haqida umumiy tasavvur hosil etishga xizmat qiladi.³⁰

Jamiyat taraqqiy etishi bilan nutqiy hosila ma'no vaqtincha ifodalagan tushunchasi bilan doimiy aloqadorlik kasb etib, bora-bora barqarorlashib boradi va hosila nutqiy ma'no lisoniylashadi. Natijada bir sememali leksema, birdan ortiq sememali leksemalarga aylanib boradi.

Leksema ko'p ma'noli bo'lsa, har bir sememada boshqa-boshqa tushuncha aks etgan, sememalarda farqli semalar mavjud har bir semaning nutqiy voqelanishidagi qurshovi o'ziga xos, har bir sememasi asosida bog'lanuvchi birliklar paradikmasi turlicha bo'ladi.

Har qanday leksema, xoh u bir sememali, xoh ko'p ma'noli sememali bo'lsin, nutqda bir ma'noli bo'ladi. So'z esa hamisha bir manoli.³¹

Polesemantik so'zlarning ma'nosi faqat matnda bilinadi.

Polesemiya ikki asosiy yo'l bilan hosil bo'ladi:

1. So'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida;

³⁰Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: 2009.91-92-betlar.

³¹Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: 2009.91-92-betlar.

2.Ko'p ma'noli so'zdan yoki ko'p ma'noli qo'shimcha vositasida yasalgan so'zlardan.

Bulardan birinchisi asosiy yo'l bo'lib hisoblanadi. Polesemantik so'zlar qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu so'zlar ma'nosi o'zaro bog'langan bo'ladi. Xuddi shu xususiyat ularni omonimlardan farqlaydi. Polesemantik so'zlar o'rtasidagi aloqadorlik uzilsa, omonimlar vujudga keladi. Tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar, paydo bo'layotgan yangi narsalar o'z atamasi bo'lishini talab etadi. Buning uchun tilda yangi narsalarning nomi sifatida yangi so'zlar paydo bo'ladi yoki tildagi bor bo'lgan so'z yangi hodisaning atamasiga aylanadi.³²

Ko'p ma'noli so'zlar ba'zi manolardagina fonovariantiga ega bo'lishi mumkin. Ayrim ko'p ma'noli so'zlar o'zining fonovariantlari bilan o'z (asl) ma'nosidagi teng qo'llanishi mumkin.³³

Leksik ma'no odatda bir narsa-buyum, harakatning nomini boshqa bir narsa - buyum, belgi, harakatga ko'chirish yo'li bilan rivojlanadi. Bunday ko'chirishning tabiatini, mavqeini har bir tilning o'zidagi semantik qonuniyatlar belgilaydi.

Ma'no ko'chirish yo'llari:

Metafora

Metonimiya

Sinegdoxa

Vazifadoshlik

Kinoya

³²E.Qilichev. Hozirgi o'zbek adabiy tili Buxoro. 2009-yil. 67-68-betlar.

³³Jonuzoqov SH. Ko'p ma'noli so'zlar va ularning fonovariantlari. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2007.3-son. 44-bet.

Leksik ma'no odatda bir predmet, belgi harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatga ko'chirish yo'li bilan aniqlanadi. Bunday ko'chirishning tabiatini, mavqeini har bir tilning o'zida semantic qonuniyatlar belgilaydi.

Biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi(shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o'xshashligi asosida ko'chirilsa **metafora** (yunoncha *metaphora*- "ko'chirish")yo'li bilan ko'chirish deyiladi.

Metafora yo'li bilan ko'chirishning asosiy ko'rinishlari

1. Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga shakliy o'xshashlik asosida ko'chiriladi;
2. Bir predmetga (bazan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko'chiriladi.
3. Bir predmetga xos harakatning nomi boshqa bir predmetning harakatiga ko'chiriladi.

Kular yuz, **isig' so'z**, ula nang tavar,

Bo'sh, azad kishilar bu ichka evar.

San altun,kumush birla alma qulug'.

Bu uch nang yulug' qil, qamug' qil tavar.

Ochiq yuz, **shirin so'z** bo'lib, ber tavar,

Bu uch narsa uzra senga xalq og'ar.

Sen oltin, kumushka sotib olma qul,

O'sha uchta narsa tavar –mol yig'ar.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Isig'so'z(**shirin** so'z) birikmalarida metaforik ma'no ko'chishyuzaga kelgan bo'lib, **issiq**so'zi asli "*jism tarkibida molekulalar harakati natijasida yuzaga keladigan va jismlarni qizdiradigan, isitadigan kinetic energiya, issiqlik, harorat*"(O'TIL II 233-bet) ma'nosini bildiradi. Ushbu (isig'so'z) birikmasida issiq so'zining bosh (energiya, harorat) ma'nosi chekinib, ko'chma "kishiga xush keladigan, yoqimli" semasi yuzaga chiqqan va natijada "**yoqimli so'z**" ma'nosi hosil bo'lgan. Yusuf Xos Hojib o'z asarida bunday ma'no ko'chish usullaridan keng foydalangan. Bu esa baytdagi ma'no rang-barangligi-yu ifodaning aniqligini ta'minlagan

Neku bar ajunda o'limdin qatug',
O'lumug' saqinsa ketar ming tatig'.
O'lum bir **tengiz** ul uchi yo'q tubi,
Baqa ko'rsa etru tubi yo'q batug'.

Nima bor jahonda o'limdan o'tar.
O'lim esga tushsa halovat ketar.
Tagi va tubi yo'q **dengizdir o'lim**,
Bilibqo'y, chuqur u, tubiga yutar.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ushbu she'rda **dengiz** so'zida ma'no ko'chishining metafora usuliga asoslanilgan. Bunda (**O'lumtengiz**) dengiz leksemasining bosh ma'nosi "*keng maydonni egallagan;okeanning quruqlikka tutashgan yoki quruqlikka yorib kirgan bo'lagi,okeannig quruqlik yoki orol, yarimorollar bilan ajralgan qismi*" (O'TIL I 597-bet) ma'nosidir. **O'lumtengiz**birikmasida metaforani hosil qilish uchun belgi-hajmga tayanilgan. Dengiz leksemasining suv bilan to'lganlik semasi chetlashib, chegarasizlik, tubsizlik semasi kuchaytirilgan.Natijada "tubi, oxiri yo'q o'lim"

ma'nosi yuzaga kelgan. Bu esa ma'noda ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Bir predmetga (bazan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko'chirilishi bu metaforaning bir ko'rinishidir.³⁴ Masalan, og'ir so'zi bilan yuzaga kelgan ma'no ko'chishlari. Bunday misollar Yusuf Xos Hojib tilida ham, "Qutadg'u bilig"ning Boqijon To'xliyev tomonidan ishlangan tabdilida ham juda ko'plab uchraydi:

Ag'ir yuk kishika qilinch arquqi,

Qilinch arquq ersa, *bo'lun it* o'qi.

Yag'I qilmag'usin qilinchi qilur,

Yag'I bu, yag'idin na bar adruqi.

Fe'li badlik erga *og'ir yuk* erur,

Fe'li bad kishilar tuban it turur.

Yovi qilmas ishni fe'li qilg'usi,

Bu yovdir va yovdan nechuk farq qilur.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Yetib keldi uyga, u cho'kdi og'ir,

Uzoq o'yga cho'mdi- yumushi *og'ir*. (Qutadg'u bilig 84-bet.)

Farzandsiz desalar, bu *og'ir gap*. (Qutadg'u bilig 73-bet)

³⁴Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: "To'lqin". 2005. 155-bet.

Ag'ir yuk birikmasida birikmani tashkil qiluvchi har ikkala so'z ham ko'chma ma'noda qo'llangan.

Og'ir so'zi bosh ma'noda "*vazni katta bo'lgan, vaznli, vazmin*" (O'TIL III 187-bet) ma'nosini bildiradi. Mazkur birikma(*ag'ir yuk*)da *og'ir* so'zi o'zining asl ma'nosidan chekinib, "*mushkul, qiyin, mashaqqatli*"—ko'chma ma'nosida kelgan. *Yuk* leksemasi ham xuddi shunday. Mazkur so'z asli "*bir yerdan ikkinchi yerga ko'tarib, tashib borilishi lozim bo'lgan og'irlik*" (O'TIL V 79-bet) semasidan uzoqlasib, "kishini urintirib qo'yadigan, tashvishga soladigan ortiqcha narsa, tashvish" semasini anglatib kelgan. Ikkala so'zda ham ma'noning ko'chishi bu kuchli ma'no va ifodaning nozikligini ta'minlamoqda.

Og'ir gap, og'ir yumush birikuvlarida ham yuqoridagi kabi hodisalar kuzatilib, ko'chma "*qattiq tegadigan, ko'ngilsiz, malolli*" ma'nosini anglatib xafa qiladigan gap ma'nosida, "*ko'p kuch yoki bilim talab qiladigan, qiyin, murakkab, mashaqqatli*" semalari bilan qiyin, murakkab yumush ma'nosida kelgan. Mazkur metaforik ko'chish asosida esa leksemada badiiylik ta'minlanib, ifoda semasi salbiylikni bildirgan.

Bundan tashqari shirin leksemasi bilan bo'g'liq metaforik ma'no ko'chish ikkala tabdilda ham samarali qo'llangan:

Qarindan chiqarding, qarinqa kirur,

Shakardin igidtim, yilanqa berur.

Esizim tiriglik, esizim tiriglik,

O'kunchun sig'it birla go'rka kirar

Qorindan chiqarur, yana kirguzur,

Shirin parvarishlab ilonga berur,

Esiz bu tiriklik, esiz bu hayot,

O'kinch-nola birla u go'rga kirur.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Dag'alga muloyim, **achchiq** so'zga **shirin** javob bera olish ham mardlik.

(Qutadg'u bilig 94-bet)

Shakardin igidtim (**shirin** parvarishlab), **shirin** javob-birikmalarida shirin so'zi o'z ma'nosida “ **shirasi o'rkir, shirali, ta'mi yoqimli, lazmatli**”(O'TIL IV 579-bet)ma'nosiga ega. Ushbu(**shakardin igidtimshirin javob**)birikuvlarda “shakardin,shirin” so'zi tarkibidagi “**tam**”semasi chekinib, “*kishi huzur qiladigan, xush yoqadigan, yoqimli*” semasi kuchaygan.

Achchiq so'zleksemalarida ham shunday holat yuzaga kelgan. Boisi “**Achchiq**” so'zi asli “**ta'mi og'izni, tilni achitadigan, nordon, jonni achituvchi**” (O'.T.I.L. I tom.65-bet) ma'nosini anglatadi. Ana shu bosh ma'nodan esa “**kishiga qattiq tegadigan, ko'ngilga ozor beradigan, qattiq, noxush**” ko'chma ma'nosi o'sib chiqqan.

Bu misollarda ikkita belgi xususiyatning nisbiy o'xshashligiga asoslanilgan.

Kezigcha kelir bu **o'lumning qo'ri**,

O'lumka o'zung chin anuqlan, yuri.

Qur altun bag'uchi munu man teyu,

O'lum tutti ersa uzuldi quri.

Mahalsiz uradi **o'lim panjasi**,

O'limga hozir tur, ko'rib chorasin.

Mana man, deb oltin kamar bog'lagan,

O'lim qarshi kelsa, yechar belbog'in.

O'lumning qo'ri (o'lim panjasi) so'zi metaforik ma'no ko'chishi asosida hosil qilingan. Bunda ***qo'r (panja)***leksemasi asli "***qo'lning kaft va barmoqlardan iborat qismi***" (O'TIL III 212-bet) ma'nosini bildiradi. Ushbu (***o'lumning qo'ri***) birikmada asl ma'no (organ)dan chetlashib, ko'chma "***iskanja, yutqunlik, tobelik***"ma'nosida qo'llangan. Bu esa baytda ohangdorlikni yuzaga keltirib, badiiylikni ta'minlamoqda.

Bo'di qisg'a, yunchig'-qilinchi bushi,

Bushi qayda bo'lsa, ***tutushqa bashi***.

Bo'd o'tru kerak ham tengincha yarag',

Ishing o'rtu tut, biliglik kishi.

Bo'yi qisqalarning fasod qilmishi,

Fasod qayda bo'lsa, ***urushning boshi***,

Yarashiq munosib bo'lar o'rta bo'y,

Ishing o'rtacha tut, ey, dono kishi.

Xuddi shunday birikmani Boqijon To'xliyevtabdilida ham uchratish mumkin.

Siyosat boshini bo'sh qo'yma zinhor,

Ko'ngil berib, munkir, buzg'unchilar bor.

(Qutadg'u bilig. 139-bet.)

Boqib ko'r kitobni yaratgan kishi,

Hunarli er emish,***kishilar boshi***.

(Qutadg'u bilig.9-bet)

Mazkur **tutushqa bashi (urushning boshi), siyosat boshi, kishilar boshi** birikuvidagi **“bosh”** leksemasining asl ma’nosi *“tananing bo’yindan yuqorigi (odamda) yoki oldingi (hayvonlarda) qismi, kalla”* (O’TIL.I 136-bet)dir. Yuqoridagi birikuv(siyosat boshi)da **“bosh”** so’zi o’zining asl ma’nosi (tananing bo’yindan yuqorigi qismi, kalla)dan chekinib, ko’chma **“ot bilan birikib shu ot orqali ifodalangan narsaning o’zini, ya’ni siyosat”** ma’nosini bildirib kelmoqda.

Kishilar boshi birikuvida ham o’zining asl ma’nosidan chekinib, ko’chma **“eng oldingi, birinchi”** semasini namoyon qilib kelmoqda. Bunda tana a’zosi-chetlashgan sema o’rni yo’ldosh sema bilan to’ldirilgan va natijada **“kishilarning eng oldi, asli, birinchisi”** ma’nosi hosil qilingan.

Har ikki holatda ham metaforani hosil qilishda predmetlardagi shakl o’xshashligiga asoslanilgan.

Bayat fazli birla ag’irlar qilur,

*Bilig **qapg’a** achlur, o’ngarur yo’lug’.*

Bilig bilsa kunda kutadur kuni,

Necha ma kichig ersa bo’ldi ulug’.

Mazkur bandda **qapg’a** so’zi bilan bog’liq ma’no ko’chishi kuzatilmoqda.

Xudo fazli birla ulug’lar qulin,

*Ochar ilm **eshigin**, topar o’z yo’lin.*

Bilm bo’lsa kunda topar ro’shnolik,

Kichig bo’lsa hamki ulug’lar o’rin.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Qapg’a(eshik) so’zi o’z ma’nosida *“uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o’rnatiladigan, ochib-yopib turiladigan qurilish buyumi”*(O’TIL.V.64-bet) ma’nosini bildiradi. Mazkur (*biligqapg’a(eshigi)*) birikmasida eshik so’zi asl *“buyum”* ma’nosidan uzoqlashib, *“bir maqsadga erishish yo’li, imkoniyat yo’li”* -ko’chma ma’nosida qo’llangan. Bunda narsa predmetlardagi shakl o’xshashligiga asoslanilgan.

Urug’lug’ kishilar qilinchi silig,

Vafa birla xalqqa yadig'li alig.
Arig'siz, qilinchi vafasiz, jafa,
Necha ma etursa shaker ham yilig.

Asl, sof kishilar ishi –yaxshilik,
Vafo birla xalqqa qilar ezgulik.
Tuban, pastlar ishi- vafosiz, jafo.
Agarchi yedirgay shaker ham ilik.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ushbu (*urug'lik kishilar*) birikmasida urug'lik so'zi asli “ekish uchun ajratilgan don-dun, meva va.h”(O”TIL.IV.298-bet) ma'nosini anglatadi. Ma'lumki, ekish uchun eng sara,asl urug'lar olinadi. Ana shu “saralik, asllik” semasi o'xshashlik asosida kishi leksemasiga ko'chirilgan. Bunda “narsa,urug'” semasining chekinishi natijasida, “saralik” semasi kuchaytirilgan.

Ma'no ko'chishining metafora usulini hosil qilishda bir predmetga xos harakatning nomi boshqa bir predmetning harakatiga ko'chirilishiga ham asoslaniladi. Buni durdona asar-“Qutadg'u bilig” da ham ko'rish mumkin:

Kishi ko'ngli tutchi tilar edguni,
Avitur tilak bulguqa o'zini.
Qali bo'lsa arzu, tilakin tugal,
Ko'ngul ko'trur andin, **kesar** so'zini.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Ushbu o'rindagi *so'zini kesar* birikmasidagi **kesmoq** asli-“**tig' bilan tanasi, etini tilmoq; bo'laklarga ajratmoq**”(O”TIL. II.357-bet) ma'nosini bildiradi.

Mazkur (*so'zini* kesar) birikuvidagi kesmoq so'zining asl (tig' bilan kesish) semasi uzoqlashib, ko'chma "oraga luqma tashlab, gapni bo'lmoq, to'xtatmoq" ma'nosi kuchaygan. Natijada "to'xtatilgan gap" ma'nosi yuzaga kelgan. Bu esa ma'noda noziklik va ekspressivlikni ta'minkashga xizmat qiluvchi vosita bo'lmoqda.

Metaforalarning go'zal na'munalari, yuqorida aytib o'tilganidek, "Qutadg'u bilig" ning keng ommaga mo'ljallangan Boqijon To'xliyev tomonidan ishlab chiqilgan tabdilida ham uchraydi:

Esa keldi Sharqdan bahorning yeli

Olamga ochildi go'zallik yo'li.

Bo'z yer iporlandi qoru muz ketib,

Bezanadiolam chiroy ko'rsatib.

(Qutadg'u bilig 10-bet)

Bezanadi olam birikmasida metaforani hosil qilishda bajariladigan ish-harakat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlikka asoslanilgan. Bezanmoq so'zining asl ma'nosi "*zeb, naqsh ziynat berib yoki ko'z quvontiradigan narsalar bilan boyib husnlanmoq, chiroyli, ko'rkam bo'lmoq*" (O'T.I.L. I tom. 96-bet) ni bildiradi. Ushbu (bezanadi olam) birikuvidagi "bezamoq" leksemasida esa insonga xos bo'lgan harakat olam, tabiatga ko'chirilgan.

Hech qachon ko'p gapirma....Tuman **so'z tugunini** bitta so'z bilan yozib yubor, ya'ni oz so'zlarga ko'proq ma'no singdirish payidan bo'lgan.

(Qutadg'u bilig 12-bet.)

Tugun leksemasining bosh ma'nosi "*arqon, ip, lenta va shu kabi narsalarning bog'lab ulangan yoki sirtmoq kabi tortib bog'langan yeri*" (O.T.I.L.II tom. 216-bet) dir. Ushbu "**so'z tuguni**" birikmasidagi "**tugun**" so'zi asl ma'nosini yo'qotib, "*voqea, hodisa va shu kabilarning to'qnashgan,*

chalkashgan yeri” (O’.T.I.L.218-bet)ko’chma ma’nosini anglatib kelgan. Bu esa adib asarining badiiyligini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Zakovat har doim shunday uqtiradi:**dag’al so’z** kishi boshidagi ofat.

(Qutadg’u bilig. 13-bet)

Mazkur**”dag’al so’z”** birikuvidagi **“dag’al”** so’zining asl ma’nosi **“tashqi ko’rinishi, tuzilishi beo’xshov, qo’pol, xunuk”** (O’.T.I.L.I tom.216-bet) ma’nosini anglatadi. Ushbu birikuv(**dag’al so’z**)da **“dag’al”** so’zining asl (qo’pol, xunuk) ma’nosidan **“kishiga qattiq tegadigan, qattiq botadigan, ”** semasi o’sib chiqqan. Natijada ma’no ko’chishining metafora usuli hosil bo’lgan. Bunda ikki belgi xususiyatning nisbiy o’xshashligiga asoslanilgan.

Totli damlar ketdi, **bag’ir o’ti** so’ndi.

(Qutadg’u bilig. 20-bet)

“Totli” so’zining asl ma’nosi **“ta’mi, mazasi yaxshi, mazali, lazzatli, shirin”**(O’.T.I.L. II tom.209-bet). Bunda (totli damlar)**“ totli”** so’zining asl ma’nosi(**tam**) dan chetlanib, ko’chma **“lazzat bag’ishlovchi, shirin nash’ali”**ma’nosida qo’llangan. Natijada jumlada ma’no nozikligi ta’minlangan va bu tushunchani yanada aniq ifodalashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari **“bag’ir o’ti”** birikmasida ham metafora asosida ma’no ko’chishi yuzaga kelgan. Ushbu birikmada ikkala so’z ham metafora asosida birikkan. Bunda **“bag’ir”** so’zining bosh ma’nosi **“jigar, ya’ni odam va hayvonlarning o’t(safro) ishlab chiqaradigan organi”**(O’.T.I.L. I tom.89,277-betlar) ma’nosini bildiradi. Mazkur (**“bag’ir o’ti”**)birikmadagi bag’ir so’zi o’zining bosh ma’nosi(**organ**)dan chekinib, ko’chma **“his-tuyg’u va kechinmalar manbai, yurak, qalb, dil”** ma’nosida qo’llangan. **“O’t”** leksemasi ham o’zining asl ma’nosi **“yonish jarayoni, olov, otash”**(O’.T.I.L. I tom. 516-bet)dan chekinib, ko’chma **“biror narsani bajarish uchun, intilish va ishtiyoq”** manosida qo’llangan. Bu esa asarda badiiylilikni, ta’sirchanlikni oshirmoqda.

Elig mamlakatni obod, el-yurti esa shod-xurram yashatish **istagi bilan yonardi.**

(Qutadg'u bilig.20-bet)

Bunda yonmoq so'zida metafora usulida ma'no ko'chishi natijasida ko'chma ma'no hosil bo'lmoqda.

Asli yonmoq so'zi **“o't olmoq, o'tda kuymoq”**(O'T.I.L. II tom.259-bet.)ma'nosiga ega. Mazkur birikuv(istak bilan yonmoq)da esa yonmoq so'zi **“o't olmoq, kuymoq”**dan chetlanib, undan o'sib chiqqan ko'chma **“alangalanmoq, o't olmoq”**ma'nosini bildirib kelgan. Natijada *yurakda istak bilan alangalanish* ma'nosi hosil bo'lgan.

Barchaga ma'lumki, o'zbek xalqi tili va adabiyoti tarixi moziyga borib taqaladi. Shu boisdan ham til va adabiyot chambarchas rivojlanib kelgan. Buni asrlar oshgan asarlarimiz misolida ham ko'rishimiz mumkin. Zero, ular ham adabiy merosimiz, ham leksik qatlamimizning qanchalik boyligini ko'rsata oladigan bir ko'zgudir. So'zimizning isboti sifatida Y.X.Hojibning **“Qutadg'u bilig”** asarini oladigan bo'lsak, unda adib o'z maqsadini bayon etishda turkiy til leksikasidan juda unumli foydalana olgan va o'z navbatida tilimiz imkoniyatlarini namoyish eta bilgan. Buni Boqijon To'xliyev mumkin qadar aslicha yoritishga harakat qilgan:

Podsholi kishida kim bilsa o'zin,

Ish **ko'zin** bilganga ishlatar so'zin. (Qutadg'u bilig139-bet)

Mazkur(*ish ko'zin*) birikmasidagi **“ko'z”** leksemasining bosh ma'nosi **“tirik mavjudodning ko'rish organi”** bo'lib, ushbu misrada bosh ma'no (organ)dan shakl o'xshashligi asosida **“narsaning biror belgi bilan ajralib turadigan qismi, jihati”** semasi hosil qilingan va ushbu sema mavhum ot bo'lgan ish so'ziga ko'chirilgan. Bu esa ijodkor leksikasini boyitishga xizmat qilib badiiyligini oshirmoqda.

Chiroyga **ko‘milgan** ko‘katlar o‘zi,

Yashilga belangan bu yerning **yuzi**.

(“Qutadg‘u bilig” 11-bet.)

Ushbu (chiroyga ko‘milgan) birikmasida metaforaning harakat o‘xshashligiga asoslanilgan va “*ko‘milgan*” leksemasining bosh ma‘nosi “*kavlangan yerga (chuqurcha, o‘ra...) joylab, ustini berkitmoq*” dan ko‘chma “*juda ortiq darajada ta‘min etilgan*” semasi hosil qilingan. Natijada “*o‘ta chiroyli*” ma‘nosi yuzaga kelgan.

“**Yuz**” so‘zida ham metaforaning shakl o‘xshashligi usuliga asoslanilgan bo‘lib, bunda “*odam boshining old tomondan ko‘rinishi, chehra, bet*”(O‘TIL.V.463-bet)ma‘nosidan o‘sib chiqqan holda “*ustki tomon, yuza, sirt, sath*” semasi hosil qilingan va bu bizga turli noz-ne‘matlar beradigan, o‘simlik unadigan muqaddas zamin yerga ko‘chirilgan. Natijada, baytning badiiyligi oshib, badiiy-estetik zavqi yanada yorqinroq namoyon bo‘lgan.

Metaforada harakat, shakl o‘xshashligiga asoslanish bilan birga, belgi o‘xshashligiga ham asoslaniladi:

Elig mamlakatni obod, el-yurtni esa shod- xurram yashatish istagi bilan **yonardi**.

(Qutadg‘u bilig. 21-bet)

Ushbu o‘rindagi “yonmoq” so‘zi asli “*o‘t olmoq, o‘tda kuymoq*” (O‘.T.I.L. II tom.259-bet) ma‘nolarini anglatadi. Mazkur (istak bilan yonmoq) birikuvida esa yonmoq so‘zi o‘zining bosh ma‘nosi (olovda kuymoq)dan chetlashib, ko‘chma “*sabrsizlanmoq, shoshilmoq*”ma‘nosini anglatib kelgan. Bu esa adibda so‘z qo‘llash mahoratining naqadar boyligini bildirmoqda va badiiylilikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Birisi-shoshilmoq, biri-ko‘zi –och,

Biri jaholatdir, yaqinlashma,qoch.

To'rtinchi-yovuzlik, **buzuqfellilik**,

Oxirgisi-yolg'on, **qo'pol tillilik**.

(Qutadg'u bilig. 45-bet)

Mazkur "*buzuq fe'l*" birikuvida ham ma'no ko'chishi –metafora hodisasi yuzaga kelgan va bunda "**buzuq**" so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan. "Buzuq" leksemasining asl ma'nosi "**buzilib yaroqsiz holga kelgan, ishdan chiqqan**" (O'.T.I.L. I tom.146-bet) ma'nosidir. Ushbu "*buzuq fe'l*" birikuvida esa asl ma'nodan yo'ldosh sema "qoidaga to'g'ri kelmaydigan, noto'g'ri" hosil bo'lgan va natijada yo'ldosh semadan o'sib chiqqan "**axloqi yomon, yaramas**" manosi yuzaga kelgan. Bu esa baytda badiiylikni oshirib, ekspressivlikni ta'minlamoqda.

Saodatli erur moli yo'q gadoy,

Borga toqat qilsa, uning *ko'ngli boy*.

(Qutadg'u bilig.135-bet)

Mazkur "*ko'ngli boy*" birikuvida so'zlardagi ma'no ko'chishining metafora usuli hosil qilingan bo'lib, bunda ikki belgi-xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlikka asoslanilgan.³⁵ Boy so'zi asli "**kishi kuchidan foydalanish hisobiga boylik, dunyo orttirgan; badavlat, davlatmand**"(O'.T.I.L. I tom.128-bet) ma'nosini bildiradi. Ushbu bosh ma'nodan "*iqtisodiy jihatdan mustahkam, hech narsadan kamchiligi, muhtojligi yo'q, hamma narsadan badastir, to'kis, badavlat*" ma'nosi o'sib chiqqan.Bosh ma'nodagi "*shaxs va iqtisodiy jihatdan badavlat*" semasi chekinib, uning o'rniga hosila ma'no "**yetarli darajada bekamu ko'st**" semasi hosil bo'lgan va natijada "*ko'ngli bekamu ko'st, ko'ngli boy*" ma'nosi yuzaga kelgan. Bu esa misrada badiiylikni ta'minlab, ijobiy ekspressiv ma'no ifodalamoqda.

Suyukli bo'ladi **ochiq dil** kishi,

³⁵ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent:"To'lqin".2005.157-bet

*Dili tosh*ning qarg'ish qozonmoq ishi.

(Qutadg'u bilig 53-bet)

Ochiq dil, dili tosh birikuvidagi ochiq, tosh so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan. ***Ochiq*** leksemasining bosh "hech narsa bilan berkitilmagan, to'silmagan" (O'.T.I.L. I tom.552-bet) ma'nosidan "yuragida kiri yo'q, xushchaqchaq" ma'nosi hosil bo'lgan. Natijada ma'no ko'chib, ko'chma "yuragida kiri yo'q dil" ma'nosi ifodalangan.

Tosh leksemasi "yaxlit massa yoki bo'lak-bo'lak holda uchraydigan, suv kor qilmaydigan, qattiq, mo'rt tog' jinslarining umumiy nomi" (O'.T.I.L. II tom.209-bet) ma'nosini bildiradi. Bosh ma'nodagi predmetlik semasi chetlashtirilib, qattqlik semasi kuchaytirilib bu mavhum ot –dilga ko'chirilgan va natijada ko'chma "rahm, shafqatni bilmaydigan, qattiq, berahm, shafqatsiz" ma'no yuzaga kelgan. Shuning uchun tosh so'zi metaforik ma'no ifodalagan. Asarda bunday ma'no ko'chish usullari juda ko'p uchraydi.

*Tili yumshoq*esa ham ochiq qo'li,

Birovlarga yana kuyinsa dili.

(Qutadg'u bilig. 53-bet)

Yumshoqleksemasi bosh ma'noda "***qo'l tegsa botadigan, mayin; qayishqoq, bo'sh***" (O'.T.I.L. II tom.469-bet) ma'nosini bildiradi. Mazkur birikuv (tili yumshoq)da esa bosh ma'no (qayishqoqlik, mayinlik)dan chekinib, ko'chma "***birovga qattiq gapirmaydigan, dag'allik qilmaydigan; muloyim, iltifotli***" ma'nosini bildiradi.

Endi shoir qoldi, u-so'z teruvchi,

Tilde olqish yoki so'kish beruvchi.

Qilichdan o'tkirroq bularning tili,

Yana qildan nozik xotiri, yo'li.

Har xil **nozik** so'zni anglay desang gar,

Bulardan eshit sen so'zni sar-basar.

Dengizga kirar u dil bilan tugal,

Gavhar, inju, yoqut chiqarar misol.

(Qutadg'u bilig⁹⁴-bet)

“Nozik so'z” birikuvidagi ham yuqoridagi ma'no ko'chisi kabi belgi o'xshashligiga asoslanilgan. **Nozik** so'zining bosh ma'nosi **“yuksak mahorat va san'at bilan juda bejirim qilib ishlangan; nafis, latif”**(O'.T.I.L. I tom.507-bet) demakdir. Ushbu o'rinda esa mazkur leksemada bosh ma'nodagi **“ buyum ”** semasi chetlashtirilib, **“belgi”** semasi kuchaytilishi natijasida undan ko'chma **“muloyim, ma'yin va yoqimli, ma'noli, nazokatli”** ma'nosi o'sib chiqqan. Bundan esa **“ma'noli so'z”** ma'nosi yuzaga kelgan. **“Nozik”** so'zida yuqoridagi **“og'ir”** leksemasiga nisbatan ijobiy ekspressivlik mavjud bo'lib, badiiylilikni ta'minlaydi va kishini mulohaza qilishga undaydi.

Asarda ma'no ko'chishining faqatgi belgiga asoslangan usuligina emas, **“bir predmetning nomi boshqa bir predmetga shakliy o'xshashlik asosida ko'chirilishi”³⁶** holati ham uchraydi:

Bu payt kech tushgan, osmon **qorong'ulik pardasi**ga o'ralgan edi.

(Qutadg'u bilig⁹⁴-bet)

Ushbu o'rin(**qorong'ulikpardasi**)da parda so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan, ya'ni **“borliqni ko'zdan berkitib, to'sib turgan narsa”** ma'nosida. Bu sema esa o'z o'rnida parda leksemasining bosh ma'nosi **“ deraza, eshik va shu kabilarga ziynat yoki to'sish uchun tutiladigan buyum”**(O'.T.I.L. I tom.573-bet) dan o'sib

³⁶Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent:“To'lqin”.2005.157-bet

chiqqan. Mazkur metaforik ko'chish asosida birikmaga badiiylilik bo'yog'I berilmoqda va bu mazmundorlik oshirilishiga xizmat qilmoqda.

Ko'rinadiki, ma'no ko'chishining metafora usulini qo'llash so'zning ochilmagan qirralarini ochib, uning betakror ma'nolarini namoyon etadi. Bu esa asarning badiiy-estetik qimmatini yanada boyitadi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Y.X.Hojib o'z asarida so'zning ma'no semalarini yorqinroq va aniq ifodalashga harakat qilgan. Bu esa bizni yanada chuqurroq izlanishga chorlaydi va buni keyingi tadqiqotlarimizda davom ettirishga harakat qilamiz.

2.2 Metonimiya usuli bilan ma'no ko'chishi

Metonimiya – yunoncha so'z bo'lib, *“qayta nomlash”* degani. Metonimiya ham ma'no ko'chish usullaridan biri bo'lib, bunda “bir predmetning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o'xshashlik asosida emas, bog'liqlik asosida ko'chiriladi.”³⁷

Metonimiya ham yangi ma'no hosil qilish jarayoni va bu jarayon natijasining barqarorligiga ko'ra lison va nutqqa dahldor hodisa, boshqacha aytganda metonimik hosila ma'no sof yoki lisoniy bo'lishi mumkin.³⁸

1. Bir predmet nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga ko'chiriladi.
2. Bir predmet nomi shu predmetga soslangan o'lchov birligining nomi bilan xizmat qiladi.
3. Bir predmet nomi shu predmet asosida hosil bo'ladigan predmetga ko'chiriladi.
4. Harakatning nomi shunday harakat natijasida hosil bo'ladigan predmetga ko'chiriladi.

Yusuf Xos Hojib ham o'z asarida ma'no ko'chishining bu usulidan samarali foydalangan va so'zning ma'no ta'sirchanligiga erishgan.

Tili yolg'on erning jafa qilqi ul,

³⁷Tursunov S va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: 1992-yil. 58-bet.

³⁸Shoabdurahmonov va boshqalar. “Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: 1980-yil.

Jafa kimda ersa asha yilqi ul.
Kishi yalg'anindin tilama vafa,
Bu bir so'z sinamish o'gush yilqi ul.

Tili yolg'on erning jafo xulqidir,
Jafo kimda bo'lsa osha yilqidur.
Kishi yolg'onidan vafo kutmagin,
Bu so'z sinalgan talay yilgidir.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Til so'zi asli ***“og'iz bo'shlig'ida joylashgan tam bilish va nutq tovushlarini hosil qilish uchun xizmat qiladigan organ, a'zo”***(O'.T.I.L.II tom.174-bet) ma'nosiga ega. Ana shu dastlabki “azo” semasidan “insonning shu a'zo yordamida hosil bo'ladigan so'zlashish, gapirish qobiliyati, so'zlashuv, fikr ifodalash va o'zaro aloqa vositasi bo'lib xizmat qilish” semasi o'sib chiqqan va natijada fikr ifodalash vositasi ma'nosiga bog'liqlik asosida ***“nutqning o'ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalari bilan ajralib turadigan bir turi, stil, uslub”*** ma'nosi ifodalanmoqda. Bunda(tili yolg'on) til so'zi o'zining asosiy bosh ma'nosi(organ)dan chekingan. Natijada metonimiya hodisasi yuzaga kelayotgani kuzatiladi.

Qamug' nangka vaqt ul, kuni belguluk,

Nafas, tin to'qurqa sani belguluk.

Yil, **ay**, kun kechartek tiriklik kechar,

Kechar kun kechirkay sani belgulik.

Hamma ishga vaqti, kuni belgilik,

Nafas, dam olishning kuni belgilik.

Yil, **oy**, kun o'tardek tiriklik o'tar,

O'tib kunlar eltgay seni belgilik.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Oy “*quyosh nur olib yog`du sochuvchi samoning samoviy jismi.*” (O`TIL. III. 98-bet) Ushbu o`rinda metonimiyaning yana bir turi : narsa-buyumga asoslangan o`lchov birligi bo`lib xizmat qilgan .³⁹

Mazkur banddagi **oy** so`zi “*astronomik yilning o`n ikkidan biriga – oyning Quyosh atrofidan bir marta aylanib chiqish muddatiga yaqin vaqt oralig`i*” (O`TIL. III. 98-bet) ma`nosidagi ko`chma (metonimik) ma`noda kelmoqda .

3.1 Sinekdoxa usuli.

Sinekdoxa –ma`no ko`bilan ko`chishining predmetlardagi miqdor belgilariga tayanadigan usuldir. (*synecdoche- nazarda tutish*)

Sinekdoxa yo`li bilan ko`chirish metonimiya yo`li bilan ko`chirishning bir ko`rinishi deyiladi. Sinekdoxa yo`li bilan ko`chirishning o`ziga xos xususiyati miqdor belgisiga asoslanishidir.

Sinekdoxa yo`li bilan ko`chirish ikki xil:

- 1) Bir predmetning nomi sifatida unga xos biror qismning nomi ishlatiladi(qism orqali butun anglatiladi)
- 2) Bir predmetning nomi sifatida shu predmetni ham o`z ichiga olgan butunning nomi ishlatiladi(butun orqali qism anglatiladi).⁴⁰

Bu beklar **qapug`in** siyosat bezar,
Siyosat bila beg elini tuzar.Esizka siyosat yuritg`u
kerak,

Budun bulg`anuqin siyosat suzar.

Ha,beglar **eshigin** siyosat bezar,

³⁹Rahmatullatev Sh .Hozirgi adabiy o`zbek tili. Toshkent: 2006-y 58-bet.

⁴⁰Tursunov S va boshqalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent: 1992-yil. 59-bet

Siyosat ila beg elini tuzar.

Yomonga siyosat yuritish kerak,

Avom iflosini siyosat suzar.

(www.ziyouz.com kutubxonasi)

Dastlabki misradagi **qapug'**, ya'ni **eshik** so'zi orqali ma'no ko'chishining sinekdoxa usuli hosil qilingan. Bunda eshik so'zi asli qism, ya'ni **“uy, xona, binoning kiraverishida o'rnatilgan, ochib, yopib turiladigan moslama ”** (O'TIL Iltom. 457-bet)ma'nosiga ega. Mazkur o'rinda esaeshik semasi butunni-**“uy, joy, xonadon”** ma'nosini anglatmoqda.

So'nggi misradagi **budun** so'zi orqali esa butun orqali qism nazarda tutilmoqda. Chunki budun so'zi asli xalq, avom-**“umum, omma, xalq”** (O'TIL I.32-bet)ma'nosini bildiradi. Ushbu (budun bulg'anuqin) birikmasida esa budun so'zi o'zining bosh ma'nosi(omma, umum)dan chekinib, **“sanoqli yomon xulqli kishini”** nazarda tutmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ikki baytning o'zida qism orqali butun (hovli),butun orqali qism(kishi) anglashilmoqda.

XULOSA

Adabiyotimizda yirik iste`dodli adib va shoirlar bisyordir. Har qanday ijodkorning badiiy mahorati u yaratgan badiiy asarlar tilida namoyon bo`ladi. Adibning hayotdagi voqea-hodisalarga munosabati, o`ziga xos dunyoqarashi, teran mulohazaviy idroki, tabiatdagi boshqalar ko`ra olmagan ranglarni nozik his etishi hamda uni go`zal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi va yana ko`pgina boshqa jihatlar birgalikda badiiy asarning jozibadorligini tashkil qiladi. Ijodkorning xalq tilini chuqur bilishi, cheksiz so`z boyligiga ega bo`lishi, so`zning ta`sir qudratini his eta olishi, har bir so`zni ma`no noziklarigacha ilg`ab olishi so`z o`yinlaridan ustalik bilan foydalana olishi alohida o`rin tutadi.

Buni o`zbek adabiyotida pandnoma asarlar muallifi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida bunday xususiyatlar yaqqol ko`zga tashlanadi. Ijodkorning badiiy mahoratini boshqalardan ajratib turadigan yorqin qirralaridan biri ham tilidagi o`ziga xoslikdir.

O`z davrining yetuk ijodkori bo`lgan adibning adabiyotda tutgan o`rni beqiyosdir. Uning asaridada ilgari surilgan g`oyalar va so`z qo`llash yo`sinlari

etirofga sazovordir. “Qutadg’u bilig”ni o`rganish, uning ijod qirralarini ochish, tahlil qilish, uning fikrlarini yana bir bor ilg`ashimizga asos bo`ladi.

“Qutadg’u bilig”da miqyosli tafakkur madaniyati va tahlil mahorati bilan yuksak ma`naviy intilishlar va badiiy did birlashib ketgan.

Ishimizning birinchi bobida “Qutadg’u bilig” asarida qo`llangan ayrim so`zlarning etimologiyasini tahlil qildik. Dastlab asardagi ayrim so`zlar(**bek, dengiz, yosh, ol, ipor, och, qo`y, achchiq, ikki, orzu**)ning tarixiy asoslari haqida fikr yuritdik. Asardagi o`z va o`zlashgan qatlamga oid so`zlar haqida to`xtaldik. O`z qatlamga mansub ( **bek, dengiz, yosh, ol, ipor, och, qo`y, achchiq, ikki, orzu**) vaarab tilidan(**Sabo, jafo, vafo, ofiyat, davlat, masal**)o`zlashgan so`zlar, fors-tojiktilidan (**tilak**)o`zlashgan so`zlar va ularning uslubiy xususiyatlarini tahlil qildik.

Ikkinchi bobda “Qutadg’u bilig” asarining til xususiyatini tahlil qilar ekanmiz, unda uchraydigan so`zning shakl va ma`no munosabatlari yetarlicha go`zal va betakror ekanligiga guvoh bo`lamiz. Omonim so`zlar (*yuz, o`g, yilqi ul*) va omoformalar (*egadir-egadir*)ning go`zal qo`llanishlari, sinonimlar (*o`kunch- sig`it, himmat-muruvvat, hiyla, etig, chara*)ning maftunkor namunalari hamda antonimlar (*it- arslan, edgu-esiz, kichig-qari, jo`r-ag`i*)ning turli ma`no ko`rinishlaridan ustalik bilan foydalanganligiga guvoh bo`ldik. “Qutadg’u bilig” adabiy jihatdan mukammal bo`libgina qolmay, balki u til xususiyatlari jihatidan ham boy ekanligi, so`z qo`llash mahoratining o`ziga xosligi va so`zga boyligi ko`zga tashlanadi.

Uchinchi bobda “Qutadg’u bilig”da adibning so`z qo`llash mahorati haqida so`z yuritdik. “Qutadg’u bilig” asarida ko`pma`nolilik hodisasidan mahorat bilan foydalanib, ma`no ko`chishning barcha usullarini ustalik bilan qo`llab, she`rlarida o`ziga xos mazmundorlik, joziba va ta`sirchanlikni ta`minlagan. Ma`no ko`chishining barcha turlaridan, ayniqsa, metafora va metonimiyadan unumli va o`rinli foydalangan. Yusuf Xos Hojib tilining metafora(**isig` so`z**), (**shakardinigitdim-Shirin parvarishlab**)asosida badiiy –tasvir vositalarining

yaratilishini ko'rdik. Metonimiyaning semantic- uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib o'tdik.

Metonimiyaning turli ko'rinishlari: narsa-buyumning nomi bilan shu narsa-buyumning hosila ma'nosi atalishi (*tili yolg'on*); narsa-buyum nomiga asoslangan o'lchov birligi bo'lishi (*oyo'tar*)dan mohirona foydalangan

Sinekdoxa asosida ma'nosi ko'chgan so'zlar (*beklarqapug'in, budunbulg'anuqin*) semantikasi haqida fikr yuritdik.

Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bili“ asaridagi so'zlarning til xususiyatlari o'ziga xosligi bilan kitobxonlar e'tiborida qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent:2008.
2. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas'ulmiz .Toshkent:2001.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: “Sharq”. 1999.
4. Abdurahmonov H, Eshonqulov E. O'zbek tili .Toshkent:1982.
5. Abduraxmonov H, Mahmudov N. So'z estetikasi.Toshkent:”Fan”, 1981.
6. Aliqulov Abduhakim. Leksemalarning tasnifiga doir.”Til va adabiyot ta'limi” jurnali.2005.2-son.
7. Haydarov A.Badiiy uslubning fonetik vositalari.”Til va adabiyot ta'limi” jurnali. 2007.2-son.
8. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: “To'lqin”,2005.
9. Jamoa mualliflari. O'zbek tili gramatikasi II tom. Toshkent:1976.
10. Jonuzoqov Sh. Ko'p ma'noli so'zlar va ularning fonovariantlari.”Til va adabiyot ta'limi” jurnali.2007. 3-son.
11. Jalilova N.O'z qatlam asosida qon-qarindoshlik atamalarining shakllanishi”Til va adabiyot ta'limi” jurnali.2009. 1-son.

12. Karimov S..O`zbek tilining badiiy uslubi.Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent:1993.
13. Mirzayev M, Eshonqulov Y.Hozirgi o`zbek adabiy tili.Toshkent.Mashqlar to`plami.
14. Mukarramova M. Metafora yasovchi o`xshatish vositalarining ma`nolari haqida. "O`zbek tili va adabiyoti" jurnali. 1971. 1-son.
15. Mukarramova M. O`xshatish tasnifi. "O`zbek tili va adabiyoti" jurnali.1968.5-son.
16. Murodova N.O`zbek adabiy tilining boyib borishida shevalarning o`rni."Til va adabiyot ta`limi" jurnali. 2004 .6-son.
17. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari.Toshkent: "Fan",1982.
18. Qilichev E. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Buxoro: 2009.
- 19.Qilichev E. O`zbek tilining amaliy stilistikasi.Toshkent:"o`qituvchi", 1992.
20. Qobiljonova G.Metafora mohiyati."O`zbek tili va adabiyoti" jurnali. 2007.6-son .
21. Qo`ng`irov R. O`zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent: "Fan",1977
22. Rahmatullayev Sh . Hozirgi adabiy o`zbek tili.Toshkent, 2006.
23. Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi O`zbek adabiy tili.Toshkent: 2009.
24. Sulaymonova G. Sinonimik ot so`zarning polifunksionalligi."Til va adabiyot ta`limi" jurnali.2009.12-son.
25. Sultonova M. Tilshunoslikning noadabiy qatlamida sleng so`zlar."Til va adabiyot ta`limi" jurnali. 2007. 3-son.
26. Tursunov U , .Muxtorov J,Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili.Toshkent:1992.
27. To`xliyev B, Shamsiyev M, .Ziyodova J .O`zbek tili o`qitish metodikasi .Toshkent:2006.

- 28 Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent :
“Fan”, 2007.
29. Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent:,1980.
30. O'zbek tili antonimlarning izohli lug'ati. Rahmatullayev Sh va boshqalar.
Toshkent: “O'qituvchi”,1980.
31. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Hojiyev A. Toshkent:1970.
32. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. Rahmatullayev Sh. Toshkent:
“O'qituvchi”, 1984.
33. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildlik. Moskva,1981.
34. O'zbek tilininig izohli lug'ati. 5 jildlik.Toshkent: “O'zbekiston milliy
ensiklopediyasi ” davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
35. „Qutadg'u bilig“.Internet.WWW. zyouz. com kutubxonasi.
36. „Qutadg'u bilig“.Toshkent: “Yulduzcha”,1990-y.
38. WWW. zyouz. com kutubxonasi.

**O'zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchisi Abdullayeva Sarvinozning “Yusuf
Xos Hojib “Qutadg'u bilig“ asarining leksik-semantik
xususiyatlari“ mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar**

XULOSASI

O'zbekiston keyingi yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida ma'naviy va madaniy yuksalish yo'liga chiqib oldi. Jamiyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi ilm-fan olamida ham tub burilishlar, sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va axloq haqidagi asarlarni ko'plab chop etish, ayniqsa, madaniy meros bilan birga yangilanayotgan bugungi turmush tarzini va yangicha tus olayotgan jamiyatimiz mazmun-mohiyatini teranroq yoritish, kengroq o'rganish muhimdir” (Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent. “O'zbekiston”, 1994, 59-bet).

Shunday ekan, odob-axloq, komil insonning ma'naviy qiyofasi haqida betakror pandu nasihatlar jamlangan asarlarni chuqur o'rganish, xalq tilidagi ifoda

vositalarining boyligini ko'rsatish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Shu jumladan, mumtoz asarlar badiiyatini o'rganish o'zbek tilshunosligida ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Chunki, mumtoz asarlar matni lingvostatistik, grammatik, leksik tahlili borasida hali bajarilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lami keng, ularning o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va ijodiy uslubining o'ziga xos belgilarini aniqlash masalalari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaralganda O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi magistranti Abdullayeva Sarvinozning **“Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig“ asarining leksik-semantik xususiyatlari”** mavzusidagi magistrlikdissertasiyasi dolzarb mavzuga bag'ishlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi asoslangan.

MDning birinchi bobi **“Qutadg'u bilig“da qo'llangan ayrim so'zlarning etimologiyasi**“deb nomlangan. Unda magistrant **“Qutadg'u bilig”**dagi ayrim so'zlarning tarixiy asoslari hamda asardagi o'z va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar xususida batafsil ma'lumot beradi. Nazariyaga uygun holda asar matnidani olingan parchalar bobda qo'yilgan masalani oydinlashtirishga xizmat qiladi.

MDning ikkinchi bobi **“Qutadg'ubilig“asaridagiso'zlarningshaklvama'nomunosabatigako'raturllar**it ahliliga bag'ishlangan. Bu bobda magistrant asarda qo'llangan sinonim so'zlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda omonim va antonim so'zlarning uslubiy vosita sifatida**“Qutadg'u bilig”**da tutgan o'rnini yoritishga harakat qiladi. Fikrlar bayonida izchillik, tahlillarda uzviylik, keng qamrovlilik, asosiy tushunchani ilmiy-nazariy jihatdan izohlash ustunlik qiladi.

MDning uchinchi bobi**“Qutadg'u bilig” da adibning so'z qo'llash mahorati**” deb nomlangan.Unda muallif asosiy e'tiborni Yusuf Xos Hojibning

soʻz qoʻllash mahoratiga qaratadi. Asar badiiyatini ochish koʻzlangan ushbu bobda magistrant oʻz oldiga qoʻygan maqsadga toʻla erisha olgan. Unda metafora asosida badiiy –tasvir vositalarining yaratilishi hamdametonimiyaning semantik- uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish, sinekdoxa asosida maʼnosi koʻchgan soʻzlar semantikasiga asosiy eʼtibor qaratilgan. Maʼno koʻchish usullarining badiiy asar tilini boyitishdagi oʻrni “Qutadgʻu bilig”ning asliyati va tabdili asosida amalga oshirilgan. Yusuf Xos Hojibning soʻz qoʻllash mahorati asliyatdan keltirilgan yorqin misollar yordamida tahlilga tortilgan.

MDning xulosa qismida mavzu yuzasidan barcha nazariy xulosalar umumlashtirilib, yakunlangan. Ishda berilgan umumiy xulosalar bitiruv magistrlik dissertatsiyasining mazmuniga toʻla mos tushadi. Shu bilan birga ishda baʼzi juzʼiy kamchiliklar ham uchraydi, ammo ular ishning ilmiy va amaliy qimmatini pasaytirmaydi.

Men, Oʻzbek tili va adabiyoti taʼlim yoʻnalishi magistranti Abdullayeva Sarvinozning **“Yusuf Xos Hojib “Qutadgʻu bilig“ asarining leksik-semantik xususiyatlari”** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini tugallangan magistrlik tadqiqoti sifatida ijobiy baholayman va himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

f.f.n. G.Sh.Boltayeva

**O'zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchisi Abdullayeva Sarvinozning “Yusuf
Xos Hojib “Qutadg'u bilig“ asarining leksik-semantik
xususiyatlari“ mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

TAQRIZI

O'zbek tilining o'ziga xos jilosi, uning serqirraligi, badiiy obrazlar yarata olish qudratini to'laroq anglash uchun mumtoz va hozirgi zamon adiblarimiz badiiy asarlari tilini o'rganish zamon talabidir. Shu jumladan xalqimizning sevimli pandnoma asari “Qutadg'u bilig”dek boy ma'naviy merosdan bahramand bo'lish yoshlarimizning komil inson bo'lib voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi. Mumtoz adabiyotimiz vakili Yusuf Xos Hojibning chuqur insoniy, falsafiy, ayni paytda sodda va xalqona mulohazalarga boy asarlarining til xususiyatini o'rganish, ularning badiiy qirralarini ochib berish tilshunoslar hamda adabiyotshunoslar tomonidan qilinayotgan qator ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda. Badiiy asar tilini chuqur tadqiq etish, uning til xususiyatlarini ochib berish, lug'at tarkibini boyitish bugungi kunda tilshunoslar oldidagi yuksak vazifadir. Mana shu jihatdan magistrant Abdullayeva Sarvinozning magistrlik dissertatsiyasi mavzusi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Magistrlik dissertatsiyasikirish, uch asosiy bob, xulosa vafoydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi asoslangan.

MDning birinchi bobi “Qutadg'u bilig“da qo'llangan ayrim so'zlarning etimologiyasi“ deb nomlangan deb nomlangan.Unda magistrant Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari matnida uchraydigan ayrim so'zlarning etimologiyasi, ma'no taraqqiyoti hamda lug'atlardagi izohiga e'tiborni qaratadi. Fikrlar va havolalarda izchillikka, ilmiy ish yozish tartibiga to'la rioya qilingan.

MDning ikkinchi bobi “Qutadg’u bilig“ asaridagi so’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlarini yoritishga qaratilgan. Bunda talaba asar tarkibida uchraydigan omonim, sinonim, antonym so’zlarning leksik xususiyatlarini matndan olingan parchalar asosida tahlil qilgan. Ko’pgina misollar asliyat va tabdilni taqqoslash, ulardagi ma’no nozikliklarini ochishga qaratilgan.

MDning uchinchi bobi “Qutadg’u bilig” da adibning so’z qo’llash mahorati” deb nomlangan. Unda muallif Yusuf Xos Hojibning so’z qo’llash mahoratini metafora, metonimiya, sinekdoxa asosida so’zlarning semantik- uslubiy imkoniyatlarini ochib beradi.

MDning xulosa qismida mavzu yuzasidan barcha nazariy xulosalar umumlashtirilib, yakunlangan. Ishda berilgan umumiy xulosalar bitiruv magistrlik dissertatsiyasining mazmuniga to’la mos tushadi. Shu bilan birga ishda ba’zi juz’iy kamchiliklar ham uchraydi, ammo ular ishning ilmiy va amaliy qimmatini pasaytirmaydi.

Men, O’zbek tili va adabiyoti ta’lim yo’nalishi magistranti Abdullayeva Sarvinozning “Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig“ asarining leksik-semantik xususiyatlari“ mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini tugallangan tadqiqot sifatida ijobiy baholayman va himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

F.f.n.B.P.Zaripov

**O'zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchisi Abdullayeva Sarvinozning
“Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig“ asarining leksik-semantik
xususiyatlari“mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga Navoiy davlat
konchilik instituti Ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy ishlar bo’yicha dekan
muovini Zokirov Bahodir**

TAQRIZI

O'zbek mumtoz adabiyotida pandnoma janrining yorqin namunasi hisoblangan “Qutadg’u bilug” asarining til xususiyatlarini o’rganish nihoyatda murakkab, ayni damda xayrli ishdir. Asarda ifodalangan chuqur falsafiy o’gitlar bugungi kunda ma’naviy qiyofasi shakllangan, madaniyati yuksak, bilimdon, har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalashda bebaho durdona sifatida ma’naviy merosimiz xazinasini to’ldiradi.

Magistrant Abdullayeva Sarvinozning “Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig“ asarining leksik-semantik xususiyatlari“ mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi Yusuf Xos Hojibning soʻz orqali betakror ma’no ifodalash san’ati, tasviriy vositalardan foydalanishi, soʻz qoʻllash mahoratiga bag’ishlanganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ishda mumtoz asardagi ayrim soʻzlar etimologiyasi va ularning leksik xususiyatlari, shakl va ma’no munosabatiga asoslangan soʻzlar, ko’chimlarning qoʻllanishi, bu soʻzlar vositasida yaratilgan badiiy san’atlar xususida keng ma’lumot berilgan. Muallifning nazariy fikrlari doston matnidan olingan parchalar asosida keng izohlagan. Fikrlar bayoni izchil, tahlillarda ilmiylik, uzviylik, o’zaro aloqadorlik yorqin nazarga tashlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasida erishilgan amaliy natijalardan betakror soʻz san’atkorining pandnoma ruhidagi asarlarini maktab, kollej, litsey hamda oliy dargohlarda o’rganishda, seminar- trening darslari tashkil

qilishda va ma'naviyat soatlarida qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

Taqrizchi:

B.Zokirov

O'zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchisi Abdullayeva Sarvinozning
“Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig“ asarining leksik-semantik
xususiyatlari“mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga
ANNOTATSIYA

Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi asoslangan.

MDning birinchi bobi “Qutadg’u bilig“da qo'llangan ayrim so'zlarning etimologiyasi“ deb nomlangan. Unda magistrant “Qutadg’u bilig”dagi ayrim so'zlarning tarixiy asoslari hamda asardagi o'z va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar xususida batafsil ma'lumot beradi.

MDning ikkinchi bobi “Qutadg’u bilig“ asaridagi so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari tahliliga bag'ishlangan. Fikrlar bayonida izchillik, tahlillarda uzviylik, keng qamrovlilik, asosiy tushunchani ilmiy-nazariy jihatdan izohlash ustunlik qiladi.

MDning uchinchi bobi “Qutadg’u bilig” da adibning so'z qo'llash mahorati” deb nomlangan. Unda muallif asosiy e'tiborni Yusuf Xos Hojibning so'z qo'llash mahoratiga qaratadi. Ma'no ko'chish usullarining badiiy asar tilini boyitishdagi o'rni “Qutadg’u bilig”ning asliyat va tabdili asosida amalga oshirilgan. Ish yakunidagi xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati magistrlik dissertatsiyasi mazmuniga to'la mos tushadi. MD yuzasidan ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to'plamlarida 11 ta maqola e'lon qilingan.